

BIR BO'LSAK — YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK — VATANMIZ!

www.mv-vatanparvar.uz



# VATANPARVAR

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan ● 2024-yil 11-oktabr, №41 (3103)

**7** VATAN HIMOYACHILARIGA  
YANGI TUHFA

**11** KO'KSINGIZDA  
SO'NMASIN SHIDDAT

JADIDCHILIK G'OYALARI  
**14** HAYOTGA QANDAY  
TATBIQ QILINGAN?

**16** YOSHLAR MA'NAVIYATINI  
YUKSALTIRISH

**18** METIN IRODA, KUCHLI  
QAT'IYAT VA ISHONCH

VATANNI  
ASRAYMIZ  
HUSHYOR,  
MARDONA



IJTIMOIIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

**BIZ**  
HAQIMIZDA

@ vatanparvar-bt@umail.uz

t.me/mv\_vatanparvar\_uz

t.me/mudofaavazirligi

facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya

Muntazam ravishda o'tkazib kelinayotgan “Kembriya patruli” musobaqasi real vaziyatga yaqinlashtirilgan sharoitlarda jangovar ko'nikmalari va chidamliligini sinovdan o'tkazish uchun dunyo bo'ylab harbiy bo'linmalarni birlashtiradi. Unda ishtirokchi bo'linmalar 48 soatdan kamroq vaqt ichida 80 kilometrlik masofani bosib o'tib, ko'plab harbiy manyovrlar va patrullik vazifalarini bajaradilar. Mashg'ulotlar Uels (*Buyuk Britaniya*)ning markaziy qismidagi tog'lar va botqoqliklar kabi o'tish qiyin bo'lgan hududlarda o'tkaziladi.

## XALQARO MUSOBAQADA

## KUMUSH MEDAL

Buyuk Britaniyada xizmat safarida yurgan sinfdoshimdan hayajonli maktub keldi. U ushbu davlatda o'tkazilgan dunyoning eng murakkab va nufuzli xalqaro harbiy musobaqalaridan biri – “Kembriya patruli”da O'zbekiston harbiylari ikkinchi o'rinni olgani haqida ingliz tilida chop etiladigan gazetalar va saytlarda qayta-qayta o'qib, faxrlanayotganini yozgandi. Mening borgan-bormaganim haqida ham so'rabdi.

Biz Xalqaro armiya o'yinlari sabab Moskvani yayov kezgandik, bu gal Toshkent xalqaro aeroportiga sovrindor Vatan himoyachilarini kutib olishga chiqdik. Muzaffar harbiy xizmatchilar Mudofaa vazirligi mas'ul ofitserlari, qo'llarida gul ko'targan yaqinlari va muxlislari qarshisiga harbiy orkestr sadolari ostida kirib kelishdi.



Ta'kidlash kerakki, joriy yilgi musobaqalarda 30 dan ortiq mamlakat, jumladan, Buyuk Britaniya, AQSh, Fransiya, Hindiston, Germaniya, Italiya, Latviya, Qozog'iston, Turkmaniston va boshqa davlatlardan 100 dan ortiq jamoa ishtirok etdi. Har bir jamoa 80 kilometrdan ortiq masofani bosib o'tib, eng murakkab tabiiy va taktik to'siqlarni yengdi. Har 8-10 kilometrda marshrutning turli joylarida ishtirokchilar kimyoviy va biologik tahdid sharoitida harakat qilish, hujum

operatsiyalari va murakkab joylarda yo'nalishni topish kabi jangovar vazifalarni bajardilar.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi jamoasi yuqori darajadagi professionallik va hamjihatlikni namoyish etib, o'z guruhida 13 ta jamoa orasida birinchi o'rinni egalladi. Ular barcha bosqichlarda zararlangan hududlardan muvaffaqiyatli tarzda o'tib, taktik operatsiyalardagi mahoratini ko'rsatib, marshrutni birinchilar safida yakunladilar. Yo'l-yo'lakay 4 ta rekordni yangilab o'tishgani tahsinga loyiq.

Odatda, mashg'ulotlar jamoalar uchrashuv joyiga yetib kelgandan

keyin boshlanadi, bu yerda ularning jihozlari tekshiriladi va barcha zarur anjomlar bor-yo'qligi aniqlanadi. Shundan so'ng jamoa komandiri buyruqni qabul qiladi, qolgan a'zolar esa tezda o'zlariga boshpana tayyorlaydilar, jangovar tayyorgarlik hamda buyruqni olishga hozirlik ko'radilar, ya'ni ular patrullik qiladigan hududning maketini tayyorlaydilar. Ko'plab jamoalar musobaqani yakunlay olmaydi, marraga yetib borganlar esa uchta mukofot – oltin, kumush yoki bronza medallardan birini qo'lga kiritadi. Umumiy natijalarga ko'ra, O'zbekiston jamoasi kumush medalga sazovor bo'ldi.

Birpasda harbiy libos o'rmini o'zbekona to'n va do'ppi, belbog' egalladi. Viqor bilan turgan g'oliblarga boqib turgan yaqinlari yashirincha sevinch ko'z yoshlarini ham to'kib oldilar. Bu musobaqada faxrli ikkinchi o'rinni qo'lga kiritish ham oson bo'lmagan, albatta. Britaniyalik harbiy mutaxassislar O'zbekiston harbiy xizmatchilarining tayyorgarlik darajasini yuksak baholab, ularning jangovar vazifalarni bajarishdagi mukammal ko'nikmalarini alohida e'tirof etgani fikrimiz dalilidir.

**Mayor Aziz NORQULOV,**  
“Vatanparvar”

# SAYLOV TEXNOLOGIYALARI



Zamonaviy demokratik davlatlarda saylov jarayoniga ko'p jihatdan saylov texnologiyalaridan foydalanish darajasi sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur texnologiyalarga XX asrning 30-yillarida AQShda asos solingan. Saylov texnologiyalari o'tgan asrning 50-yillariga kelib AQSh va ko'plab Yevropa davlatlarida o'z samaradorligini namoyon qilgan.

Kishilarning elektoral fe'l-atvoriga ta'sir ko'rsatib, ularni biror-bir nomzodga ovoz berishga undash maqsadida qo'llaniladigan vositalar yig'indisi saylov texnologiyalari, deb ataladi. Shuningdek, saylov texnologiyalarini saylovlarda kerakli natijaga erishishga qaratilgan usullar, texnikalar va ilmiy ma'lumotlar majmui, deb ham ta'riflash mumkin.

Saylov texnologiyalarining asosiy jihati shundan iboratki, bunda ijtimoiy-psixologik mexanizmlarga tayangan holda odamlarning kayfiyati, manfaati, qadriyati va maslagiga murojaat qilinadi. XX asrning o'rtalariga qadar saylov kampaniyalari partiya faollari, nomzodning maslakdoshlari, siyosatchilarga yordam berishni istagan xayrixoh fuqarolar yordamida amalga oshirilardi. Yordamchilar shaxsiy tashabbus ko'rsatib, nomzodga, partiya yoki g'oyaga sodiqligi tufayli ko'maklashardi. Bunday yordamchilar orasidan saylov texnologiyalarining mohir ustalari yetishib chiqdi. Lekin ular saylov texnologiyalarini va kishilarning elektoral fe'l-atvorini ilmiy o'rganmay turib, o'z tajribalariga tayanardi.

Saylov texnologiyalarida siyosiy kurashlarda to'plangan amaliy tajriba va ilmiy bilimlar uyg'unlashgan. Bunda sinalgan usullarni qo'llash bilan bir qatorda muayyan texnologiyalar tufayli qozonilgan g'alaba yoki mag'lubiyatning asl sabablarini ham o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki jamoatchilik fikrini zaruriy o'zanga yo'naltirish uchun kampaniya tashkilotchilari sharoitni to'g'ri baholab, kishilar ongi va kayfiyatidagi "og'riqli nuqtalar"ga ta'sir o'tkazishi lozim. Bu holat saylov texnologiyalari borasida zaruriy bilim, tajriba va ko'nikmalarga ega malakali siyosiy texnolog mutaxassislar yordamiga ehtiyoj tug'diradi.

Saylov kampaniyalari tashkilotchilari tajriba va ilmiy ma'lumotlarning umumlashtirilishi asosida ishlab chiqilgan siyosiy saylov texnologiyalarini o'zlashtirishlari zarur.

Zamonaviy saylov texnologiyalari turli saylov kampaniyalarining amaliy tajribasini va ilmiy bilimlarni o'zida umumlashtirgan. Bularning bari nomzodlarni, moddiy imkoniyatlari doirasida professional siyosiy maslahatchilar xizmatidan foydalanishga undaydi. Ko'plab davlatlarda mavjud xizmatni taqdim etuvchi maxsus siyosiy maslahat agentliklari tashkil etila boshlandi. 1968-yilda Parijda siyosiy kampaniyalar bo'yicha maslahatchilarning xalqaro assotsiatsiyasi tashkil etilgan. Bugungi kunda bunday siyosiy maslahat agentliklari deyarli barcha demokratik davlatlarda mavjud.

Siyosiy fanlar doirasida saylov texnologiyalarining umumiy qabul qilingan tipologiyasi mavjud emas. Saylov texnologiyalari "oq" va "qora", umumiy va xususiy, "qattiq" va "yumshoq"qa, noyob va takroriy va boshqa shu kabilarga tasniflanadi. Shu kabi muammolarni turli vaqtlarda hal qilishda siyosiy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda, turli hududiy birliklar misolida takrorlanadigan texnologiyalar haqida gapirishimiz mumkin, garchi shu kabi sharoitlarda takrorlanmas noyob texnologiyalar ham mavjud bo'lish ehtimoli bor. Saylov kampaniyasini tashkil etish va o'tkazish paytida bir xil turdagi faoliyatni amalga oshirishda resurslarni tejaydigan takrorlanadigan texnologiyalar ko'proq qiziqtiradi. Keling, ulardan ba'zilar haqida batafsilroq to'xtalib o'tamiz.

Saylov kampaniyasi texnologiyasi. Saylov kampaniyasi bu – siyosiy partiyalar, saylov bloklari, alohida nomzodlar va ularning shtablarining saylovoldi maqsadlariga (saylovlarda g'alaba qozonish yoki siyosiy maydonda o'rin egallash) erishishga qaratilgan harakatlari majmuidir. Ushbu texnologiya umumiy saylov texnologiyalariga taalluqlidir. Har bir demokratik davlat saylov kampaniyasi ishtirokchilarining xatti-harakatlarini aniq tartibga soluvchi qonunchilik bazasiga ega, biroq bunda qonun bilan

tartibga solinmagan jihat ham bor, ya'ni saylovchining tanlovi. Bunga yetarlicha ta'sir ko'rsatish uchun saylovchining tanlash motivatsiyasiga ta'sir o'tkazishning o'ziga xos usul va vositalari qo'llaniladi.

Reklama kampaniyasi texnologiyasi. Siyosiy reklama ko'plab ta'riflarga ega, ammo ularning barchasida umumiylik bor, ya'ni muayyan nomzod (partiya)ning manfaatlari yo'lida saylovchilarning unga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirishga xizmat qiluvchi OAV va boshqa aloqa vositalari orqali muloqotning amalga oshirilishi. Siyosiy reklama kampaniyasi deganda – har xil turdagi ovoz olish va saylovda g'alaba qozonish maqsadida nomzod va uning jamoasi tomonidan tarqatiladigan ma'lumotlar majmui tushuniladi. Siyosiy reklama xabarlarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular pullik asosda tarqatiladi, shu boisdan ularning mazmuni ularni tarqatayotgan subyektlar tomonidan nazorat qilinadi hamda OAV vakillari tomonidan o'zgartirilishiga (kamaytirilishi, tuzatilishi) yo'l qo'yilmaydi.

Har qanday reklama kampaniyasi samarali bo'lishi uchun aniq rejalashtirilgan va hayotga tatbiq etilgan bo'lishi, ya'ni uning asosiy bosqichlari va ketma-ketligi aniq belgilanishi zarur. Reklama kampaniyasi quyidagi bosqichlardan iborat:

1) kampaniyaning strategik maqsad va vazifalarini belgilash. Reklama kampaniyasining asosiy maqsadi – saylovlarda g'alabani ta'minlashga xizmat qiluvchi axborot ta'minotini amalga oshirishdan iborat. Biroq siyosatga yangi kelganlarning ba'zilarini o'zlarini siyosiy bozorda o'z mavqeini egallash uchun (ya'ni taniqli bo'lish uchun) reklama kampaniyasidan foydalanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun saylovchilarga nomzod haqida ma'lumot berish, unga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish hamda ularni ma'lum bir nomzodga ovoz berishga undash zarur;

2) reklama kampaniyasi byudjetini shakllantirish. Mazkur bosqichda kampaniyaning moliyaviy ta'minotini hisobga olish lozim. Odatda, saylov resurslari cheklangani bois, nisbatan

arzon va samarali reklama kampaniyasi taktikasi haqida o'ylab ko'rish maqsadga muvofiq;

3) maqsadli auditoriyani aniqlash. Ta'kidlanganidek, nomzodning maqsadli saylovoldi auditoriyasi deganda, tadqiqotlar davomida ushbu nomzodga ovoz berish istagini bildirgan va o'z tanlovi borasida yakuniy qaror qabul qilmagan saylovchilar tushuniladi. Qisqa vaqt ichida raqiblarini ma'lum bir nomzod tarafiga o'tishga ishontrish uchun reklama kampaniyasini o'tkazish befoyda ekanligi isbotlangan. Bu esa pulni behuda sarflashga tengdir;

4) reklama xabarlarini tarqatish va shakllantirish kanali, turlari va shakllarini aniqlash. Mavjud ma'lumotlar (maqsadli auditoriya, uning manfaatlari, ehtiyojlari hamda ideal siyosat va nomzod haqidagi qarashlari, shuningdek maqsadli auditoriya vakillari foydalanadigan va ishonadigan axborot kanallari, mavjud moliyaviy va inson resurslari)ga tayangan holda, axborot kanallari, shuningdek reklama xabarlarining turi va shakllari aniqlanadi;

5) siyosiy maydonda o'z o'rnini egallash. Mazkur bosqichda o'z o'rnini egallashga doir strategiya aniqlanadi: bo'sh joyni egallash yoki raqobatchilarni siqib chiqarish yoxud avvaldan egallangan makondagi o'rnini mustahkamlash;

6) reklama kampaniyasining samaradorligini aniqlash. Reklama kampaniyasining samaradorligi sarflangan mablag' va erishilgan natijaning nisbati orqali aniqlanadi. Reklama kampaniyasining natijasi esa reklama kampaniyasining barcha jarayonlarini aniq va to'g'ri bajarilishi bilan bog'liq (maqsadli auditoriyani aniqlashdan tortib, to axborot xabarini yaratish hamda efr kanalini to'g'ri tanlashgacha bo'lgan jarayon va hokazo). Aksariyat hollarda, reklama xabarlarini buzishi mumkin bo'lgan omillar hisobga olinmagani bois, reklama kampaniyasi samarasiz bo'ladi. Siyosiy reklamani qabul qilish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan texnik va psixologik omillar mavjud.

Texnik omillarga vizual omillar, masalan, televizor ekranidagi tasvirning tiniq emasligi yoki gazetaning sifatsiz bosilishi; texnik eshitish omillari – radio yoki televizor tovushining yomonligi; murakkab texnik ko'rgazmali omillar – gazetalarda, plakatlarda, varaqalarda va boshqa turdagi bosma materiallarda fotosurat va rasmning g'oyani o'zgartiradigan tarzda xato joylashtirilgani; murakkab texnik audio omillar – reklama ma'nosini buzadigan intonatsiya, noo'rin urg'u va pauzalar kiradi.

**Psixologik omillar esa o'ziga xos tabiatga ega bo'lgan "filtrlar"dan iborat bo'ladi:**

- individual filtrlar shaxsning dunyoqarashi, shuningdek shaxsning ayni paytdagi psixologik holati xususiyatlari (u xotirjam yoki hayajonli holatda) va sog'lig'i bilan bog'liq;
- ijtimoiy-psixologik filtrlar, ya'ni guruh uchun ahamiyatiga ko'ra belgilanadigan tushunchalar;
- ijtimoiy muhit bilan bog'liq bo'lgan psixologik filtrlar – stereotiplar, prototiplar va boshqalar.


**Alisher NAZAROV,**  
Qurolli Kuchlar akademiyasi  
professori, s.f.f.d. (PhD)

Shaxmat inson ixtiro qilgan eng ko'hna aql san'ati o'yinlaridan biridir. Podshohlar majlisining go'zal bezagi bo'lgan shatranjga sohibqiron Amir Temur ham mehr qo'ygan edi. Bu haqda o'nlab manbalarda ma'lumotlar bor. Temurning ushbu so'zlari ham mashhur: "Umrimni Qur'on o'qish, shatranj o'ynash va ot minish mashqlariga sarf etdim".

Jiddiy, viqorli hukmdorning shatranj o'yinini sevishi va saroyda shatranj majlislari o'tkazishi bilmaganlar uchun qiziq ma'lumot. Bu haqda tarixchi Ibn Arabshoh "Amir Temur tarixi" kitobida qimmatli voqealarni so'zlaydi.



## TEMUR HUZURIDAGI



### SHATRANJ FIKRNI PESHLAYDI

"Temur har qanday hunar va kasb bo'lmasin, agar unda biror fazilat va sharofat bo'lsa, shu kasb egalariga g'oyatda mehr qo'ygan edi. U tabiatan masxaraboz va shoirlarni yoqtirmas, munajjim-u tabiblarni o'ziga yaqin tutib, gaplariga e'tibor qilar va so'zlarini tinglardi. O'z fikrini peshlash maqsadida u muttasil shatranj o'ynardi. U katta shatranj o'ynardi. Bu shatranj taxtasining eni o'n bir (*xona*), bo'yi o'n (*xona*)dan iborat edi. Unda ortiqcha ikki tuya, ikki jiraf, ikki taliy'a (*oldingi*), ikki zubaba (*chivin*), vazir va bulardan boshqa toshlar bor. Kichik shatranj katta shatranjga nisbatan arziyasiz narsadir", deb yozadi arab tarixchisi Ibn Arabshoh.

### TEMUR DAVRI GROSSMEYSTERLARI

Temur zamonida bir qancha mashhur shatranjchilar bo'lgan. Ularning avvalida Muhammad ibn Aqil al-Haymi va Zayn al-Yazdiy ikkisining nomi tilga olinadi. Muhaddis, fiqh olimi Alouddin at-Tabriziy shatranjchilarning allomasi edi, deydi Ibn Arabshoh va davom etadi:

U shatranj majlislarida Zayn al-Yazdiyga ortiqcha piyoda qo'yar va undan g'olib chiqar, Ibn Aqilga esa bitta ot qo'yib, uning ustiga minib olardi, yengardi. Temur sharq-u g'arb iqlimlarini alg'ov-dalg'ovga soldi. Uning jang-u jadalida har bir sulton yutqazib, har bir shoh jangda ham, shaxmat o'yinida ham undan yengilib, mot bo'ldi.

### Temur Alouddin at-Tabriziyga:

– Men mulk siyosatida yagona bo'lganim kabi, sen shaxmat olamida tengi yo'qsan, – derdi. Shaxmat o'yini-yu mansubalar ilmida Tabriziyning o'ziga xos sharhi bo'lib, u bilan o'yinda chuqur o'ylamasdan uning fikri haddiga yetishga hech bir kimsa qodir emasdi.

...Ibn Arabshohga hikoya qilishlaricha, muhaddis, Alouddin at-Tabriziy mo'minlar amiri hazrat Alini tushida ko'rgan. Ali unga bir xaltada shaxmat tutqazgach, shundan keyin hech bir inson undan g'olib chiqmagan. Uning o'yin payti shatranj majlislaridagi sifatlaridan biri shu ediki, raqibi uzoq o'ylab fikrga cho'mganidan keyin o'ynagach, u hech tafakkur qilmay, hech bir tadbir ko'rmasdan yurib qo'yardi.

### MANSUBA – SHAXMAT ETYUDLARI

Alouddin at-Tabriziyning manbalarda uchraydigan yana bir nomi Ali Shatranjiy Samarqandiydir. Bir vaqtda 4 kishi bilan 4 ta taxtada g'oyibona o'ynay olgan at-Tabriziy Amir Temurning farmoni bilan Samarqandga olib kelingan. Shundan Ali Shatranjiy Samarqandiy nomi bilan shuhrat topgan.

Jahon shaxmat ilmi tarixida ismi alohida tilga olinadigan Qur'on hofizining shatranj to'g'risidagi risolasida XIV asrgacha yashagan shatranj ustalari – oliya, bugungi atama bilan aytganda, grossmeysterlarning 60 ta mansubasi to'plangan,





Kushon davri I-II asrlarga oid fil suyagidan yasalgan shaxmat donalari. 1972-yilda Surxondaryo viloyatida Dalvarzintepada olib borilgan arxeologik qazilmalar vaqtida topilgan.



VII-VIII asrlarga oid shaxmat donalari. 1977-yilda Samarqand shahrida Afrosiyobda o'tkazilgan tadqiqotlar chog'ida topilgan.



shulardan 19 tasini uning o'zi tuzgan. Mansuba – shatranj o'yinidagi holatlar bo'lib, bugun u shaxmat etyudlari deyiladi.

#### SHOHRUX VA SHOHRUXIYA

Ali Shatranjiy Samarqandiy risolasida qayd etilgan "Shatranj-i kabir"ni ma'lumotlarga ko'ra, Amir Temur yaratgan. Tabriziy va Amir Temur katta shatranj o'ynardilar, deydi Ibn Arabshoh.

Bir kuni Temur o'zi yaratgan 112 katakli shaxmat taxtasida mulozimlari bilan dona surib o'tirganida, choparlar unga ikkita quvonchli xabar keltiradi. **Birinchi** xabarga ko'ra, u o'g'il farzand ko'rgandi, **ikkinchisi**, Sayxun bo'yida qurilayotgan shahar bitgan edi. Bu xabarlarini raqibiga rux bilan shoh bergan vaqtda eshitgan Temur o'g'liga Shohrux, shaharga Shohruxiya deb nom bergani aytiladi, rivoyatlarda.

#### "SHATRANJ-I KABIR" – TEMUR SHAXMATI

"Shatranj-i kabir" – Temur shaxmati taxtasi bir xil rangda 112 katakdan iborat bo'lgan. Katta shatranjning chapdagi o'ninchi qatori hamda o'ngdagi ikkinchi qatoriga ikkita qo'shimcha katak ham qo'shilgan. Bu qo'shimcha kataklar o'yin davomida "qo'rg'oncha" suyanch vazifasini o'tab, juda muhim o'rin tutgan. "Shoh"dan boshqa sipohlar kirish huquqiga ega bo'lmagan "qo'rg'oncha" "shoh" uchun boshpana yoki chekinish yo'li vazifasini bajargan. O'yinda o'yinchi o'z "shoh"ini raqibning "qo'rg'oncha"sig'a joylashtirsa, bahs durang natija bilan yakuniga yetgan.

Ushbu shatranj turida "piyoda"lar ham bir-biridan farq qilgan. Masalan, "piyoda-shoh", "piyoda-vazir", "piyoda-qo'mondon" kabi, shuningdek "piyoda-piyoda" sipohi ham mavjud edi.

Bugunga kelib, uzuq-yuluq ma'lumotlari qolgan murakkab shaxmat turi "Shatranj-i kabir"ni buyuk sarkarda yaratgan yoki yaratmagani masalasi hamon bahsli.

#### ULUG' SHATRANJCHILAR

Xondamirning "Bashar ahli siyratidan xabar beruvchi do'st" asarining "Mashhur xislatlar sohibi sohibqiron bilan zamondosh bo'lgan ba'zi sayyid, mashoyix, ulamo va akobirlar zikri" bobida ham ulug' shatranjchilar haqida ma'lumotlar bor.

Tib ilmi va bemorlarni davolashda mo'jizakor xislatga ega bo'lgan Mavlono Xisomiddin Ibrohimshoh Kirmoniy Temurning mulozimlaridan biri

bo'lib, u oliy martabadagi yig'inlarda ishtirok etardi. Xondamir "u ham nard va shatranj bobida komil mahorat sohibi edi" deydi. Ushbu

asarda sohibqiron shatranjchilaridan Xoja Abdulvahob Tabriziy, Xoja Yusuf Buxoriy va ustoz Shamsuddin Kozeruniyning ham nomi keltiriladi.

#### TO'RTINCHI MAJLISNI BILMAYMIZ

Navoiyning zamondoshi Vosifiy "Badoye' ul vaqoye" asarida temuriylar saroyida o'tkaziladigan shatranj majlislari haqida yoza turib: "Biz (Vosifiy) umrimiz davomida uch majlisni ko'rib, tomosha qilganmiz. Ulardan o'tib tushadigan to'rtinchi majlisni aqlimizga sig'dirolmaymiz" deydi.

Ularning **BIRINCHISI** mavlono Xoja Isfahoniy va Mavlono Binoiyning shatranjbozlik majlisidir. O'yin paytida ular badiha (yo'l-

yo'lakay to'qiladigan she'r) aytib, g'aroyib so'z o'yinlari bilan ma'no durlariga zeb beradilar. Taxtada goh Isfahoniy, goh Binoiyning qo'li baland kelar ekan, ulardan birining badihasi hajvga o'tadi. Badiha hajv bilan davom etib, og'izlaridan shunaqa uyatli va chandiqlik so'zlar chiqib boshlaydiki, eshitganlar toqat qilolmay, kulaverib behush bo'lib yiqilish darajasiga yetadilar.

**IKKINCHISI** mavlono Xoja Go'yanda va Amir Xalil ishtirok etgan shatranj majlisidir. Bu ikkovi bir o'yin boshlab, oldilariga bir yalang'och pichoq va doira qo'yardilar. Doira shuning uchun ediki, kim agar bir piyodani ortiqcha yutib olsa, o'sha doirani olib raqsga tushardi. U shunaqa maqom va jilva, shunday harakatlar qilib o'ynardiki, majlisda hozir bo'lganlar kulaverib, ko'zlari yoshlanardi.

**UCHINCHISI** Do'stiy va Bisotiyning nard va shatranj majlisidir. Ular o'yin vaqtida ustozlar qasidalaridan, shatranj va nard bobidagi lug'z, g'azal, qasida, qit'a va masnaviylar, ruboiylardan yod aytib, yig'ilganlarning hayratini oshirganlar.

#### NAVOIY SHATRANJ MAJLISIDA

Alisher Navoiy va Binoiy o'rtasida bo'lgan va latifaga aylanib ketgan voqea ham shatranj majlisida sodir bo'lgan. "Boburnoma" va boshqa manbalarda yozilishicha, bir kun Alisherbek shatranj majlisida oyog'ini uzatadi. Uning oyog'i Binoiyning orqasiga tegarkan, mutoyiba qiladi:

– Ajab balodirki, Hirotda oyog'ingni uzatsang, shoirning ketiga tegadi.

Bu gap majlis ahlining kulgisini ko'taradi. Kulgi tinar-tinmas Binoiy ham hozirjavoblik bilan:

– Agar oyog'ingni yig'sang ham shoirning ortiga tegadi, – deydi.

#### HOZIRJAVOB NADIM

Podshoh majlislarida ishtirok etadigan nadim, ya'ni suhbatdoshlarga qo'yiladigan talablar hukmdor huzurida o'tkaziladigan yig'inlar darajasi ulug'ligidan darak beradi. Kaykovus nadim forsii va arab tilida insho va she'r yoza olishi, tabobat va yulduzlar ilmidan, sozandalikdan xabardor bo'lishi, nodir qissalar va kulgili hikoyalarni yoddan ayta bilishi, nard va shatranj ustasi bo'lishi, Qur'on, tafsir, hadis va shariat ilmini puxta bilishi lozim deydi. Chunki podshoh majlislarida mazkur ilmlar haqida so'z borsa, masala ko'tarilsa, nadim javob qaytarib, boshqalarni chaqirib so'rashga hojat qolmasligi kerak edi.

#### FRANSUZ OLIMI ARNO BLINNING FIKRLARI

Azizbek Norovning "Amir Temur sevgan o'yin" nomli maqolasida ham ayni mavzu bo'yicha qiziqarli ma'lumotlar bor. Unga ko'ra, **fransiyalik tarixshunos olim Arno Blin "Jahon tarixidagi buyuk sarkardalar. Amir Temur" nomli tadqiqotida Temurning buyuk shaxmatchi ekanligini e'tirof etadi.** "Shaxmat o'yinining mohir ustasi bo'lgan Amir Temur harbiy yurishlari chog'ida, jang jarayonini to'laqonli va aniq idrok eta olish, murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lgan. U muhim masalalarni shaxmat taxtasi atrofida hal etgan. Tarixiy manbalarning shohidlik berishicha, buyuk sarkarda haddan ziyod band bo'lishiga qaramay, doimo shaxmat uchun vaqt ajrata olgan. Chunki shaxmat bilan mashg'ul bo'lgan vaqtlari o'zida ruhiy xotirjamlik va ishonchni his qilgan".

Furqat ERGASHEV tayyorladi.

Temur va temuriylar davriga oid shaxmat donalari. Surxondaryo. Qumqo'rg'onida topilgan.

# YABG'U, SHAD:

## O'ZBEKCHA QADIMIY HARBIY ATOVLARNI BILASIZMI?

O'zbek tilining eng qadimgi davrlaridayoq harbiy unvon va mansablarning nomlari bo'lgan. Biroq hozir ularning bir qismi butunlay tildan chiqib ketgan, bir qismining o'rnida boshqa so'zlar qo'llanadi.

Vatan himoyasi – eng muqaddas yumush, Vatan himoyachisi bo'lish esa eng sharafli kasblardan. Bugun serjant-u leytenant, kapitan-u mayor singari atovlarni eshitganimizda, bu muqaddas yumushga umrini tikkan mard maydonlar xayolimizdan o'tadi. O'zbek xalqining shonli tarixida o'chmas iz qoldirgan Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temurdek bo'lishni orzulagan o'g'lonlarga havasingiz keladi.

O'zbek tilining eng qadimgi davrlaridayoq harbiy unvon va mansablarning nomlari bo'lgan. Til tarixi bilan shug'ullangan olimlar *alp, bayatur, çör / cörä, ön başi, yuz başi, biñ başi, tuman bæg, başliñ* singari qadimgi turkiy tilda qo'llangan terminlarni qayd qilgan. Yuqoridagi harbiy terminlarning aksariyati bugungi tilimizda yo'q: ularning bir qismi butunlay tildan chiqib ketgan, bir qismining o'rnida boshqa so'zlar qo'llanadi, ayrimlari boshqa ma'noni anglatadi. Masalan, *ön başi, yuz başi, biñ başi* so'zlari hozirgi o'zbek tiliga o'nboshi, yuzboshi, mingboshi shaklida noharbiy ma'nolarda yetib kelgan.

**Ön başi/O'nboshi** turkiy qo'shindagi harbiy mansab nomi bo'lgan va "o'n kishidan iborat kichik harbiy bo'linma boshlig'i"ni bildirgan. Uch xonlik davrida ham shu va shu kabi so'zlar harbiy mansab nomi sifatida ishlatilgan. Masalan, Qo'qon xonligida o'nboshi atamasi o'rnida *dahboshi* ishlatilgan. Keyinchalik XX asrda o'zbek armiyasida o'zgarishlar qilinishi natijasida bu atamadagi harbiylashgan ma'no qo'llanishdan to'xtagan. XX asrga kelib esa "brigada boshlig'i, brigadir" ma'nosini bildirgan boshlagan.

**Yuz başi/Yuzboshi** "yuztagacha bo'lgan askariy guruhni boshqaradigan boshliq" ma'nosini bildirgan. H. Dadaboyevning yozishicha, Qo'qon xonligida bir yuzboshi o'nta dahboshi boshqaradigan askariy guruhga

boshchilik qilgan. XX asrga kelib, bunday qo'shin turlari tugatilgach, bu so'z "qishloq oqsoqoli" ma'nosini anglatgan.

**Bing başi/Mingboshi** atamasi "ming kishigacha bo'lgan askarning boshlig'i" ma'nosini bildirgan. Mazkur atama til tarixida u yoki bu hajmdagi "qo'shin boshlig'i"ni bildirgan bo'lsa, keyinchalik bu so'zdagi harbiylashgan ma'no unutilgan hamda "daha oqsoqoli, hokim"ni bildirgan.

**Tumanbegi atamasi** "o'n ming kishilik qo'shin boshlig'i" ma'nosini ifodalagan. Bu ma'noda *tumanboshi* atamasi ham qo'llangan. Ikkalasi sinonim hisoblanadi va zamonaviy armiyada diviziya komandiriga teng keladi. Albatta, har qanday qo'shinda *tumanbegi* yoki *tumanboshi* harbiy mansabi bo'lmagan, chunki ayrim qo'shinlarda askarlarning umumiy soni o'n mingtaga ham yetmagan.

Turli davrlarda butunboshli qo'shinga boshchilik qilgan harbiy lavozim va unvonlarning nomi turlicha atalgan. "O'zbek harbiy terminologiyasi" kitobidagi ma'lumotga ko'ra, Ko'kturk xoqonligida bu lavozimni *qag'an* – davlat boshlig'i egallagan. Demak, *qag'an* atamasi ham "davlat boshlig'i" ham "oliy bosh qo'mondon" ma'nosini bildirgan. Oliy bosh qo'mondondan keyingi harbiy mansabdorlarni ifodalash uchun *yabg'u/jabg'u* va *shad* atamaları ishlatilgan. *Yabg'u* va *shadlar* qo'shinning o'ng va so'l qanotlariga sarkardalik qilgan (O'zbek harbiy terminologiyasi, 9-bet).

*Shad* atamasi harbiy unvon ma'nosida qadimdan qo'llanib kelgan. Ammo jangda shuhrat qozongan har qanday iste'dodli sarkardaga bu lavozim berilmagan. Bu unvon *qag'an* – xoqon oilasidan bo'lgan jasur sarkardalar uchun joriy qilingan (O'zbek harbiy terminologiyasi). Masalan, Bilga *qag'an shad* unvonini olganligi tarixiy kitoblardan ma'lum.

Bu unvonni olish katta sharaf bo'lgan, ayni paytda, unvon egasiga katta imtiyozlarni ham bergan. U xalqning sardoriga, hukmdorning o'sha yurtdagi noibiga aylangan. M. Do'stmurodov "Mo'yun Cho'r" nomli qadimgi bitikdan keltirgan quyidagi parchada xoqonning o'g'illari *tardush* va *to'las* qabilalariga *yabg'u (yabyu)* va *shad (šad)* etib tayinlaganligi ma'lum bo'ladi: "äki oyulima: **yabyu: šad** at bärтим – ikki o'g'limga **yabg'u** va **shad** unvonini berdim (O'rxun-Yenisey bitiktoshlaridagi harbiy terminlar tadqiqi).

G'arbiy Ko'k turk xoqoni Ishbara hukmdorligi davrida o'zining qo'l ostidagi yurtni o'n qismga bo'lgan va bu qismlarning har birini aymoq deb atagan. Mazkur aymoqlarga tayinlangan amaldorlar *shad* deb yuritilgan. Bu yerlarda *shadlar* ham davlat ishlarini boshqargan, ham harbiy sohaga bosh bo'lgan (O'zbek harbiy terminologiyasi).

**Turkiy qo'shin tarkibida harbiy maslahatchi lavozimi ham bo'lgan.** *Ayg'uchi* shunday atama bo'lgan. "O'rxun-Yenisey"

yodnomalarida *To'nyuquq* ismli kishi harbiy maslahatchi bo'lganligi yozib qoldirilgan. Yirik sarkardalar esa *subashi* unvoni bilan taqdirlangan (O'zbek harbiy terminologiyasi). "Qo'shin boshlig'i" ma'nosini bildiradigan *subashi* atamasi turkona qo'shma so'z yasash qolipida hosil qilingan, ya'ni su hamda *bashi* so'zlari qo'shib yasalgan. Su so'zi qadimgi turkiy tilda "qo'shin" ma'nosini anglatgan. *Bashi* so'zi esa "boshliq, boshchi" degan ma'noni bildiradi. Bugungi kunda bunday qolipda so'z yasalganda *bashi* so'zi *boshi* shaklida ishlatiladi. Masalan, *ishboshi, davraboshi* kabi.

Tadqiqotlarimiz davom etadi.

**Yorqinjon ODILOV,**  
filologiya fanlari doktori,  
professor



## VATAN HIMOYACHILARIGA YANGI TUHFA

– Shifo istab anchagina xususiy klinikalarga bordim, ayrimlarning tavsiyasi bilan tabiblarga ham uhradim. Nihoyat, Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik hospitalida butunlay sog'aydim, ertaga ruxsat berishar ekan, – Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumanidan saylovoldi tadbirlari doirasida maxsus yo'llanma bilan kelgan bemorning ushbu intervyusini o'qigan O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetidan amaliyotga kelgan talaba aytilgan so'zlarning samimiyligiga ishonmayotganini yashirib o'tirmadi. Men ham boshqa reja bilan tushuntirib o'tirishga hafsala qilmadim, vaqt o'tib, uning fikrini oydinlashtirish uchun Markaziy harbiy klinik hospitalida yangi majmua – tibbiy rehabilitatsiya markazining ochilish marosimiga taklif qildim.



Tantanali tadbirda mudofaa vazirining o'rinbosari polkovnik Zoirjon Bozorboyev, Qurolli Kuchlar faxriylari hamda harbiy shifokorlar ishtirok etdi. So'zga chiqqanlar xalqaro standartlar asosida yangidan barpo etilgan tibbiy rehabilitatsiya markazining ishga tushirilishi davlatimiz rahbarining harbiy xizmatchilarga navbatdagi tuhfasini alohida ta'kidladi.

Aytish joizki, mazkur markazning avvalgi fizioterapiya bo'limida fizioterapevtik va davolovchi tibbiy jihozlari eskirgan, tibbiy muolaja xonalari zamonaviy talablarga to'liq javob bermasdi.

Bugungi kunda markazning 2 qavatli binosi to'liq kapital ta'mirlanib, turli kasalliklar va jarohatlanishlardan keyin yuzaga kelgan asoratlarni davolash, gidroterapiya, mexanoterapiya, galonoterapiya, chanoq tubi mushaklarini davolash, fizioterapiya va davolovchi jismoniy tarbiya xonalari tashkil etilib, 35 nomdagi zamonaviy tibbiy davolash apparaturalari bilan jihozlandi.

Manual terapiya va refleksoterapiya muolajalarini o'tkazish hamda insult, shikastlanish va ruhiy zo'riqishlardan keyingi falajlikni



Bahrom ABDURAHIMOV



davolashga mo'ljallangan ruhiy yuklamalarni yechish faoliyati yo'lga qo'yilib, bir vaqtning o'zida yuzga yaqin bemorga tibbiy xizmat ko'rsatish imkoniyati yaratildi.

Endilikda unda harbiy xizmatchilar, pensionerlar va rehabilitatsion tibbiy yordamga muhtoj fuqarolarga zamonaviy yangi uskunalar yordamida asab, tayanch-harakat tizimi jarohatlari, amaliyotdan keyingi a'zolari funksiyasi, mehnat qobiliyatini qisqa muddatda tiklash, nogironlik darajasini pasaytirish bo'yicha tibbiy yordam ko'rsatish imkoniyati yaratildi.

Aytganча, barcha shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishgan, guvoh bo'lgan talabning fikri batamom o'zgardi. U tezroq tahsilni yakunlab, Vatan himoyasiga kamarbasta bo'lish tadorigiga tushib qolgan.

Mayor Aziz NORQULOV,  
"Vatanparvar"

# ibn Salohiddin Yusuf

## ARMIYASI TUZILISHI VA HARBIY SAN'ATI

Yevropada ko'proq Saladin – Misr sultoni sifatida tanilgan Salohiddin Yusuf ibn Ayub (1138–1193) haqli ravishda O'rta asrlar Yaqin Sharqining buyuk davlat arbobi va atoqli sarkardalaridan biri hisoblanadi.



Salohiddin Tikrit shahrida (hozirgi – Iroq hududi) tavallud topgan. Uning otasi Bag'dod xalifalari xizmatida bo'lib, Suriyadagi Baalbek shahriga hukmdorlik qilgan. Salohiddin Misr va Suriyada hokimiyatni qo'lga kiritib (1174-yil), avvalgi hukmdorlarning qo'shinlarini tarqatib yuborgan yoki yo'q qilgan va shaxsan unga sodiq bo'lgan o'z armiyasini tashkil qilgan.

Salohiddinning jangchilari "asabiyya" (sulola iftixori) deb nomlangan va ular Misr, Suriya hamda Arabistonning mag'lub bo'lgan barcha viloyatlaridan tanlab olingan.

**Sulton armiyasi tuzilishiga ko'ra, o'z ichiga quyidagi qo'shin turlarini olgan:**

og'ir, o'rta va yengil otliqlar; piyodalar;

kasbiy (professional) harbiy qismlar.

Armiyaning asosini yengil otliq qo'shinlar tashkil qilib, ular nayzabardor va kamonchilardan iborat bo'lgan. Zarbdor nayzabardorlar bo'ligi (polki) "jandoriyya" – Salohiddinning shaxsan o'ziga bo'ysunuvchi sara tuzilma bo'lgan, bu tuzilma jangda tangasimon va sim to'qima sovutlar bilan himoyalangan. Jangda "jondoriyya" qo'shinlar markazida harakatlangan bo'lib, dushman jangovar tartibini yorib o'tishga mo'ljallangan.

"Mamluqlar" deb ataluvchi g'ulomlardan, ya'ni qullardan iborat tuzilma Salohiddinning sara qo'shinlari tarkibidagi eng ko'psonli tuzilma bo'lgan.

**Ular og'ir va o'rta otliq qo'shinlarni shakllantirib, o'z ichiga quyidagi tuzilmalarni olgan:**

jasorati uchun ozodlikka erishgan mamluqlar va aslzoda arablardan tashkil etilgan "tavashiyya" sara qo'shinlari;

tinchlik davrida strategik marra va qurol-aslaha omborlarini himoya qiluvchi "askari" bo'liklari (polklari).

Muhorabalarda tavashiyya qo'shinlari jandori sara qo'shinlarini qo'llab-quvvatlashi yoki ularni almashtirishi, askari bo'liklari (polklari) esa avangard harakatlanib, yengil o'qchi otliq qo'shinlarni o'z panasiga olishi lozim bo'lgan.

Saralangan otliq armiya izidan yollanma jangchilar tuzilmalari harakatlangan.

Piyoda qo'shinlar past baholangan va to'lig'icha jund va adat deb atalgan arab ko'ngillilaridan tashkil etilgan. Ular qal'alarni qamal qilish hollarida otliq qo'shinlarni to'ldirishgan.

**Qo'shinning kasbiy (professional) harbiy qismlardan iborat kamsonli qismini quyidagi harbiy ixtisoslik bo'linmalari tashkil etgan:**

faqlahlar – og'ir nayzabardorlar hamda nafotinlar – yunon olov uloqtiruvchilari;

piyoda mamluqlar; sapyorlar;

iroq poroxchilari;

misrlik tosh uloqtiruvchilar hisoblari (raschotlari).

Salohiddin jangchilari nayza, qilich (shamshir), to'qmoq, bolta (oybolta), uloqtiriladigan nayza, kamon, arbalet va onda-sonda – sirtmoq arqon (lasso) bilan qurollangan. Asosiy himoya aslahalari qatoriga qalqon, charm, po'lat hamda sim to'qima sovutlar (xaubertlar), shu jumladan "kazagand" deb nomlangan movut bilan qoplanganlari, shuningdek dubulg'alar kirgan.

Salohiddin armiyasining umumiy sonini, odatda, 12–14 ming kishi tashkil qilgan, yirik yurish davrlarida esa bu son 40 ming kishigacha ortishi mumkin

bo'lgan. Harbiy yurishlarda Salohiddin jangovar tartib, qarorgohda joylashish, safar tartibi, qamal va aksilqamal olib borishning Yaqin Sharqda udum bo'lgan tamoyillarini qo'llagan.

Shu bilan birga, Salohiddin Yaqin Sharq arablarining qadimiy bosqin taktikasi "rozziya" ko'rinishiga o'zgartirish kiritdi. Bunda otliq qo'shinlarga urg'u berildi. "Jandoriyya" saralangan qo'shinlari sulton yonida, armiyaning markazida, to'g'ri chiziq bo'ylab hamla qilishga shay holda joylashtirilgan.

Otliq kamonchilar uzoq masofalardan o't ochishni amalga oshirgan va g'anim otlari, suvori va piyodalarga shikast yetkazib, dushman jangovar tartibini buzgan. Otliq jangda muvaffaqiyat bilan aylanna harakatda jang olib borish, dushmanga chap berish, soxta chekinish, qayta hamlaga o'tish va ba'daviy arablar bo'linmalari tomonidan qo'yiladigan pistirmalardan foydalanilgan.

Piyoda qo'shinlar barcha yirik muhorabalarda qo'llangan bo'lsa-da, biroq qamal qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Hududning xususiyatlaridan ustomonlik bilan foydalanilgan. Masalan, 1167-yili ritsar otliqlarni tepalikning qumli yonbag'ri bo'ylab yuqoriga befoyda hamla qilishga majbur qilingan.

Armiyani boshqarish uchun Salohiddin aloqa vositalari sifatida musiqa asboblari, bayroqlar bilan ishora qilishni hamda "javosh" va "munadi" deb nomlangan jarchilarni qo'llagan. Muhoraba payti Salohiddin dushman qanotlariga kutilmagan zarbalar bergan, so'ng ortga, g'anim qo'shinini o'ziga chorlab, sahro bag'riga qaytgan. Salibchilarning og'ir otliq qo'shinlari musulmonlarning yengil suvoriylari ortidan uzoq vaqtli ta'qibga

chiday olmagan, jangovar tartib cho'zilib, buzilgan va oqibatda oson o'ljaga aylangan. Bu taktika Yaqin Sharq sahrolari sharoitlariga yuqori darajada moslashtirilgan edi.

Salohiddin tomonidan Quddus shahrining (Ierusalimni) qo'lga olinishi, uning harbiy san'ati va sarkardalik iste'dodiga yorqin misoldir. Sulton juda mustahkam va kuchli himoyachilarga (garnizonga) ega shahrning uddasidan chiqish mushkul vazifaligini yaxshi tushungan. Shu sababli u harbiy hiyla qo'llashga qaror qildi. Salibchilarni shahardan tashqariga chorlash uchun 1187-yili Salohiddin Quddus shahridan uzoq bo'lmagan Tiveriya qal'asini qamal qildi.

4-iyul kuni salibchilarning Quddus shahri qiroli Gi de Luzinyan boshchiligidagi 50 ming kishiga yaqin armiyasi qamal ostidagi qal'a tomon otlandi. Salibchilar faqat 20 km yo'l bosishi lozim edi, biroq qo'shin cho'zilib ketdi, Falastinning issiq iqlimi va suvning yo'qligi askarlarning jismoniy holatiga salbiy ta'sir etdi. Salibchilar suv manbalariga yeta olmay, tunash uchun Xattin qishlog'ida to'xtashga majbur bo'ldi.

Tunda Salohiddin qo'shini salibchilar qarorgohi atrofidagi quruq butalarga o't qo'ydi va dushmanga hamla qildi. Muhoraba natijasida sulton dushmani yanchib tashladi va ishonchli g'alabani qo'lga kiritdi, bunda Quddus qiroli o'ldirildi, sarkardalarining aksariyati asirga olindi.

Xattindagi g'alaba musulmonlarga Quddus qirolligini, deyarli to'liq, qo'lga kiritish imkonini berdi va Quddusga yo'lni ochib berdi. 1187-yil sentabrda Salohiddinning 20 ming kishilik qo'shini shahar qamalini boshladi. 12 kundan so'ng, ya'ni 2-oktabrda Quddus himoyachilari uning nasroniy aholisi xavfsizligiga kafolat evaziga shaharni topshirishga rozilik berishdi. Musulmonlar uchun muqaddas bo'lgan shahrning Salohiddin armiyasi tomonidan qaytarilishi uning nomini butun jahon tarixi kitobiga muhrladi.

Shu tariqa Salohiddin aralash otliq armiyani tuzgan, bu armiyada yengil va og'ir otliq bo'linmalar (eskadronlar) shiddatli janglarda ham bir-birini panalagan (himoya qilgan). Bu armiya arablarning o'qchi otliq qo'shinlarning shiddatli o'q yomg'iriga hamohang bo'lgan tezkor hamla va chekinish (ortga qaytish) taktikasi – "karr-va-farr" uchun juda mos edi.

Piyodalar va otliq qo'shinlardan iborat avvalgi aralash tarkibli yaxlit armiyalar o'rnini turklarning tezkor ko'chish (siljish – manyovr), tarqalish va xavotirga soluvchi bosqin taktikasidan foydalanadigan yordamchi otliq qo'shinlar qo'llab-quvvatlovi ostidagi otliq kamonchilar – mamluqlarning sara bo'linmalari egalladi.

Salohiddinning sarkardalik iste'dodi salibchilarga qarshi urushlarda, ayniqsa Xattin yaqinidagi va Quddusni egallash bo'yicha muhorabalarda yorqin porladi.

**Polkovnik R. XALILOV**  
Qurolli Kuchlar akademiyasi  
fakultet boshlig'i, dotsent



Yoshlar – kelajak bunyodkorlari



# RO‘YOBGA CHIQAAYOTGAN IQTIDORLAR

So‘nggi yillarda mamlakatimizda yosh avlod kamoloti, salomatligi, ilm olishi, kasb-hunar egallashi va ertangi kun uchun munosib voris bo‘lib ulg‘ayishiga katta ahamiyat berilib, bu jarayon davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Surxondaryo viloyatida bu yo‘nalishdagi ishlarga jiddiy kirishilgan. Kuch tuzilmalari, Yoshlar ishlari agentligi, mahalla fuqarolar yig‘inlari hamkorligida tashkil etilayotgan tadbirlar misolida fikrimizni davom ettiramiz.



Davlatimiz rahbari raisligida joriy yilning 12-yanvar kuni o‘tkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ong-u shuurini ezgu maqsadlar sari yo‘naltirib, kasb-hunar egallashi, jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashish borasida mamlakatimiz Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralarga qator topshiriqlar berilgan edi. Shunga muvofiq, viloyatda kuch tuzilmalari tomonidan hamkor tashkilotlar bilan birgalikda sektorlar kesimida manzilli reja tuzilib, ijrosi ta‘minlanyapti.

Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Kakaydi garnizonida joylashgan ta‘mirlash batalyonida amalga oshirilayotgan ishlar e‘tiborga molik. Bu yerda harbiy texnikalarni ta‘mirlash va tiklash jarayoni qizg‘in davom etmoqda. Bo‘limda yoshlar bilan hamkorlik qilish bo‘yicha alohida yo‘l xaritasi ishlab chiqilib, manzilli ishlar olib borilmoqda.

– Yoshlar ta‘lim-tarbiyasi bilan bog‘liq chora-tadbirlar zaminida ularning intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan avlodlar etib tarbiyalash maqsadi ko‘zlangan, – deydi podpolkovnik Fazliddin Shomurodov. – Shu bois harbiy qismimiz mahallalar va ta‘lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorlik o‘rnatgan. Ayniqsa, kasb-hunar maktablarida o‘tkazilayotgan tadbirlar yoshlarning harbiy sohaga bo‘lgan qiziqishini yanada oshiryapti.

Batalyon harbiy xizmatchilari hududlarda yoshlar muammolarini o‘rganmoqda. Belgilangan yo‘nalishlardan kelib chiqib, yigit-qizlarni kasb-hunarga o‘qitish va bandligini ta‘minlash reja qilib olinmoqda.

Diyorbek Abduxalilov Jarqo‘rg‘on tumanidagi Yashnobod mahallasida istiqomat qiladi. U 2023-yili maktabni tamomlab, shu hududdagi kasb-hunar maktabiga o‘qishga qabul qilindi. Bolaligidan avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatishga qiziqqan Diyorbek maktabda bu ishlarni astoydil o‘rganishga kirishdi. Ushbu



muassasaning ta‘mirlash batalyoni bilan o‘zaro hamkorligi bu hunarni mukammal darajada o‘rganishiga turtki bo‘ldi. Jarqo‘rg‘on tumanidagi 1-son kasb-hunar maktabi direktori Dilmurod Jabborovning ta‘kidlashicha, endi u nafaqat yengil avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatyapti, balki harbiy texnikalarni tuzatishni o‘rganmoqda.

Jarqo‘rg‘on tumanidagi Oltintepa mahallasida istiqomat qilib kelayotgan yana bir qahramonimiz Yusufjon Qudratov bolaligidan avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatishga qiziqib keladi. Shu bois u mazkur ta‘mirlash batalyonida ustozlari ko‘magida o‘zining texnik bilim va ko‘nikmalarini yanada boyitdi. Yusufjonning sohaga qiziqishi, qobiliyati va iqtidori ta‘mirlash ishlarini qisqa fursatlarda o‘rganishiga sabab bo‘ldi. Quvonarlisi, u yaqinda mazkur ta‘mirlash batalyoniga Qurolli Kuchlar xizmatchisi sifatida ishga qabul qilindi.

– Har bir ota-ona farzandining kamolini ko‘rishni, kelajakda yurt koriga yaraydigan inson bo‘lib voyaga yetishini istaydi, – deydi Yusufning otasi Zulfiqor Mamadiyev. – Vatanparvarlik – er yigitning ona yurtiga, o‘z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Bu Vatanning o‘tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi. Har bir yosh o‘z oldiga katta maqsad qo‘yadi. Farzandimning ham rejaları bisyor. O‘g‘limning yuksak marralar sari dadil odimlayotgani uning porloq kelajagiga ishonchimni oshiryapti.

Mamlakatimizda yoshlarga nafaqat ertangi o‘zgarishlarga sabab bo‘ladigan muhim kuch, balki jamiyat taraqqiyotining mustahkam tayanchi sifatida alohida e‘tibor qaratilyapti. Shu bois ham yurt posbonlari tomonidan ulardagi maqsad va g‘oyalari qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bu esa, albatta yoshlarning jamiyatda o‘z o‘rnini topishida muhim ahamiyat kasb etadi.

**III darajali serjant  
Akbar AHMEDOV**

Manfaatlar to'qnashuvi dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan global muammolardan biridir. Ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, inson huquqi, erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladi. Shu bois unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan. Deyarli barcha Yevropa mamlakatlarida qonunchilik davlat xizmatchilariga ilmiy, ijodiy va o'qituvchilik faoliyatidan tashqari, boshqa haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanishni taqiqlaydi. Qoidaga ko'ra, ushbu majburiyatni buzish ishdan bo'shatishgacha bo'lgan intizomiy javobgarlikka sabab bo'ladi. Biroq ba'zi hollarda, milliy qonun chiqaruvchilar bunday xatti-harakatlarni korrupsiya jinoyati, deb bilishadi.

# MANFAATLAR TO'QNASHUVINING GLOBAL MUAMMOLARI xorijiy davlatlar misolida



Shunday qilib, davlat xizmatchilarining ishbilarmonlik faoliyati manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqaradi. Belgiya, Ispaniya, Latviya, Malta, Gollandiya, Portugaliya, Fransiya kabi davlatlar qonunlarida manfaatlar to'qnashuvi mustaqil jinoyat tarkibini shakllantiradi. Ko'pgina Yevropa mamlakatlarida manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi va uning oldini olish mexanizmlari davlat xizmati to'g'risidagi umumiy qonunlar bilan belgilanadi. Masalan, Polshada "Davlat xizmati to'g'risida"gi, "Davlat funksiyalarini bajaruvchi shaxslarning tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etishni cheklash to'g'risida"gi qonunlar, Avstriyada "Davlat xizmati to'g'risida"gi qonun va Jinoyat kodeksi, Islandiyada "Davlat boshqaruvi to'g'risida" qonun va Gretsiyada "Davlat xizmati to'g'risida"gi kodeks. Shu bilan birga, Sharqiy Yevropaning ba'zi davlatlarida va MDH mamlakatlarida manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida maxsus qonunlar qabul qilingan (*Serbiya, Xorvatiya, Latviya, Litva, Moldova, Qirg'iziston*).

## Yevropa va MDH mamlakatlarida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha milliy dasturlar ikkita yondashuvga asoslanadi, ya'ni:

1. Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish dasturlari korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurash strategiyasining bir qismi sifatida.

2. Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish dasturlari davlat sektorida kasbiy xulq-atvor standartlarini ta'minlash va oshirish bo'yicha keng strategiyaning bir qismi sifatida.

MDH mamlakatlari orasida Moldova Respublikasi davlat xizmatidagi manfaatlar to'qnashuvlarini hal qilishda sezilarli yutuqlarga erishgan. U korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurash strategiyasining bir qismi sifatida milliy manfaatlar to'qnashuvining oldini olish dasturini ishlab chiqqan. Bundan tashqari, Moldovada 2008-yil 15-fevralda manfaatlar to'qnashuvini boshqarishning barcha jarayonlarini belgilab beradigan "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida" maxsus qonun qabul qilingan.

## Qonunda manfaatlar to'qnashuvini ijobiy hal qilish variantlari aniqlanib belgilangan, xususan:

1) mansabdor shaxsning shaxsiy manfaatlaridan voz kechishi yoki u tomonidan bu manfaatlarga barham berilishi;

2) manfaatlar to'qnashuvida ishtirok etgan mansabdor shaxsni lavozimidan chetlashtirmasdan qaror qabul qilish jarayonida qatnashishdan bosh tortish (*taqiqlash*) – manfaatlar to'qnashuvining takrorlanish ehtimoli kam bo'lgan holatda;

3) manfaatlar to'qnashuvida ishtirok etgan mansabdor shaxsning ma'lum ma'lumotlarga kirishini cheklash;

4) mansabdor shaxsni manfaatlar to'qnashuvi xavfi bo'lmagan holatga o'tkazish;

5) qarorlar qabul qilishni to'xtatib turish tavsiya etilmaydigan manfaatlar to'qnashuvining davom etishi ehtimoli bo'lgan taqdirda – mansabdor shaxsning vakolatlari va funksiyalarini qayta ko'rib chiqish;

6) mansabdor shaxsning shaxsiy shaxs sifatida qarama-qarshi funksiyasini bajarishni o'z ichiga oladigan lavozimdan bo'shatish. Tegishli mansabdor shaxs o'zi joylashgan manfaatlar to'qnashuvidan chiqish yoki manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan imtiyozlardan voz kechishni talab qiladigan har qanday yakuniy qarorni qabul qilishga majburdir.

Qonunda davlat lavozimiga saylash, tayinlash yoki tasdiqlash uchun nomzod deklaratsiya topshirish orqali tegishli shaxsiy manfaatlarini aniqlash va e'lon qilish talab qilinishi belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari, shaxsiy manfaatlarini e'lon qilish talabi ishga qabul qilish, saylash yoki davlat lavozimiga tayinlanishni tartibga soluvchi barcha jarayonlar yoki bitimlarga kiritilgan. Moldova Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, shaxsiy manfaatlar to'g'risidagi deklaratsiya davlat xizmatchisining birinchi ish kunidan yoki tayinlangan kunidan boshlab 15 kun ichida taqdim etilishi lozim. U har yili 31-martga qadar topshiriladi. Agar ma'lumotlarda manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan

o'zgarishlar bo'lsa, ular shaxsiy manfaatlar deklaratsiyasini o'zgartirishlar paydo bo'lganidan keyin 15 kun ichida yangilashi lozim.

Shaxsiy manfaatlar to'g'risidagi deklaratsiya yozma ravishda deklarantning shaxsiy javobgarligi ostida topshiriladi va tegishli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi (*pullik kasb faoliyati bilan shug'ullanish; notijorat tashkilotlar yoki siyosiy partiyalarda ta'sischi bo'lib ishlash; korxonalar, kredit muassasasi, sug'urta tashkiloti yoki moliya instituti aksiyadori hisoblanishi; xalqaro tashkilotlar bilan aloqalar*).

Shaxsiy manfaatlar to'g'risidagi deklaratsiyalarda taqdim etilgan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish – Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha milliy komissiya va uning iltimosiga binoan bunday ma'lumotlarni tekshirishni o'z ichiga olgan vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi. Jamoat tashkilotlari rahbarlari va Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy komissiyasi o'zlariga deklaratsiyalar orqali ma'lum bo'lgan manfaatlar to'qnashuvlarini zudlik bilan hal qilish uchun zarur choralarni ko'rishlari va vakolatli davlat organlariga har qanday qonun buzilishlari to'g'risida xabar berishlari shart.

## Bir qator mamlakatlarda ushbu mojarolarni hal qilish bo'yicha chora tadbirlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ular manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga qaratilgan quyidagi profilaktik choralarini ko'rmoqda:

1. Qo'shimcha ish joyini cheklash. Bunday cheklovlar barcha mamlakatlarda mavjud, ammo faqat Ispaniyada parlament a'zolarining jamoat va shaxsiy lavozimlarni birlashtirish taqiqlangan. Fransiya va Vengriyada mahalliy saylangan mansabdor shaxslar milliy parlament a'zolari bo'lishi mumkin. Agar mahalliy saylangan amaldorlar to'liq ishlagan va o'zlarini saylangan lavozimlariga haq to'lanadigan bo'lsa, barcha mamlakatlarda davlat yoki xususiy sektorda boshqa ishlarni amalga oshirishga cheklovlar mavjud.

2. Daromadlar to'g'risida deklaratsiyani taqdim etish. Fransiya, Germaniya va Buyuk Britaniyada bu talab majburiy emas (*so'nggi ikki mamlakatda parlament a'zolari faqat*

*katta miqdordagi to'lovlarni e'lon qilishadi*). Vengriya va Italiyada bu majburiyat faqat parlament a'zolariga yuklatiladi, Polsha va Ispaniyada faqat mahalliy saylangan mansabdor shaxslar va siyosatchilar o'z daromadlarini e'lon qilishadi (*Ispaniyada parlament a'zolari ham pullik faoliyatlarini e'lon qilishadi*). Latviyada ushbu chora nafaqat barcha tayinlangan siyosiy arboblardan va saylangan mansabdor shaxslarga, balki davlat xizmatchilariga ham tegishli.

3. Oila a'zolari daromadlari to'g'risida deklaratsiyani taqdim etish. Polshada mahalliy saylangan mansabdor shaxslarning turmush o'rtoqlari va tayinlangan siyosatchilar o'z daromadlarini deklaratsiya qilishlari shart. Vengriyada ushbu chora tayinlangan siyosatchi yoki yuqori lavozimli mansabdor shaxs bilan yashaydigan barcha oila a'zolariga qo'llaniladi. Boshqa barcha mamlakatlarda bunday deklaratsiya majburiy emas. Ispaniyada bu tayinlangan siyosiy arboblarning turmush o'rtoqlari uchun ixtiyoriy choradir.

4. Tasarrufidagi shaxsiy mulk to'g'risida deklaratsiyani taqdim etish. Germaniya va Buyuk Britaniyadan tashqari mamlakatlarda hukumat a'zolari va tayinlangan siyosatchilar, parlament a'zolari va mahalliy saylangan amaldorlar shaxsiy mulklarini deklaratsiyalashlari shart.

5. Oilingan sovg'alar to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etish. Latviyada sovg'alar deklaratsiyasi barcha amaldorlar (*shu jumladan, saylangan mansabdor shaxslar va parlament a'zolari*) uchun majburiydir. Polshada bu talab faqat mahalliy saylangan amaldorlar va tayinlangan siyosatchilar uchun, Vengriyada faqat parlament a'zolari uchun majburiydir.

6. Shaxsiy manfaatlar to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etish. Germaniya va Ispaniyada bunday chora mahalliy saylangan amaldorlar uchun majburiydir. Buyuk Britaniyada mansabdor shaxslar, shu jumladan mahalliy boshqaruv organlariga saylanganlar, har safar boshqalar tomonidan mansabdor shaxsning harakatlariga ta'sir qiladigan qiziqish paydo bo'lganda rasmiy ravishda qiziqish to'g'risida deklaratsiyani taqdim etishlari kerak.

7. Qaror qabul qilish yoki ovoz berish bilan bog'liq shaxsiy manfaatlar to'g'risidagi deklaratsiya va siyosiy qarorlarni tayyorlashda yoki maslahat berishda ishtirok etish. Ushbu manfaatlarning rasmiy deklaratsiyasi Portugaliyada (*tayinlanishdan oldingi uch yillik ma'lumot uchun*), Ispaniyada (*ikki yillik davr uchun*) tayinlangan siyosatchilar va parlament a'zolari uchun, shuningdek Ispaniyada mahalliy saylangan amaldorlar uchun ham talab qilinadi (*Portugaliyada bu ixtiyoriy*). Germaniyada, Buyuk Britaniyada, Fransiya, Italiyada, Latviyada, Polshada ushbu deklaratsiyaga yondashuv yuqoridagi 7-bandda bayon etilgan kabi. (*Shartnoma asosida boshqarish bilan bog'liq shaxsiy qiziqishlar to'g'risidagi deklaratsiya*).

8. Shaxsiy va oilaviy kompaniyalarga ega bo'lish bilan bog'liq cheklovlar. Mahalliy organlarga saylangan Italiya amaldorlari uchun mulkka nisbatan ma'lum cheklovlar mavjud. Polshada ushbu toifadagi mansabdor shaxslarning xususiy biznes bilan shug'ullanishi taqiqlanadi.

**Muzaffar AKRAMOV,  
Mudofaa vazirligi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi bosh mutaxassisi**

**MUDOFAA VAZIRLIGI KORRUPSIYAGA QARSHI  
ICHKI NAZORAT BO'LIMI  
SIZLARNI KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA  
HAMKORLIKKA CHAQIRADI**

**MUROJAATCHI TO'G'RSIDAGI MA'LUMOT  
SIR SAQLANISHI KAFOLATLANADI!**

**Ishonch telefoni: 71 269-83-80, 63-80**

**Bo'lim boshlig'i: 71 269-81-51; 97 144-07-73**

**Bo'lim mutaxassisi: 71 269-81-67; 97 770-34-43**

**@m\_akramov@mil.uz**

**+998 88 745-34-43**



Askar bo'lar yigiting mard

# KO'KSINGIZDA SO'NMA SIN SHIDDAT

Samarqand garnizonidagi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxassislar tayyorlash markazidamiz. Polkovnik Anvar Jabborov boshchilik qilayotgan harbiy dargohda Vatan himoyasi uchun zarur bo'lgan bir qator harbiy mutaxassislar tayyorlanadi. Shuningdek, markazdagi harbiy qismda muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askarlar yigitlik burchini sharaf bilan ado etmoqda. Harbiy xizmat sabog'ini o'zlashtirib, sinovlarda toblanayotgan ushbu o'g'lonlar davrasida bo'lib, ular bilan dildan suhbatlashdik.

## "ZAKOVAT" GURUHI YETAKCHISI



Toshkent viloyatining Bekobod tumanidan muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan oddiy askar Erkinjon Meliqo'ziyevga posbonlar yetakchisi, deya ta'rif berishdi. Safdosh do'stlari, vzvod va guruh komandirlari bilan suhbat chog'ida Erkinjonning nomi a'lochi posbon sifatida ko'p bor tilga olindi. Albatta, bu e'tirofning o'ziga xos sababi bor.

– Oddiy askar Meliqo'ziyev xizmatning ilk davridan boshlab bilimdonligi, sabr va irodasi, tashabbuskorligi bilan safdoshlariga o'rnak bo'lib kelyapti, – deydi vzvod komandiri mayor Bahodir Xoliyorov. – U nafaqat nazariy va amaliy mashg'ulotlarda faolligi, balki harbiy libosga e'tiborligi va muomala madaniyati, kitobxon va intiluvchanligi sabab askarlar orasida

o'z o'rninga ega. Meliqo'ziyev oddiy askarlar o'rtasida tashkil etilgan "Zakovat" guruhi yetakchisi ham. U boshchilik qilayotgan bilimdonlarimiz viloyat yo'nalishida o'tkazilgan "Zakovat" intellektual o'yinlarida qatnashib, yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda. Buning sababi Erkinjonning yaratuvchan, dunyoqarashi keng, bilimdon va talabchanligi bilan uzviy bog'liq. Bunday o'g'lonlarimiz ilkidagi yigitlik burchini a'lo darajada o'tab, kelgusida mamlakatimiz rivojiga salmoqli ulush qo'shadigan fidoyi inson bo'lishiga ishonamiz.

Erkinjon bilan suhbatlashish asnosida uning xizmatga qadar moliya yo'nalishidagi xususiy oliygohda ikkinchi bosqich talabasi bo'lganidan ogoh bo'ldik. Biroq yigitlik burchini ado etish davomida uning maqsadi o'zgarganini sahifamiz qahramoni quyidagicha izohlab o'tdi:

– O'n ikki yoshimdan boshlab sportning erkin kurash turi bilan shug'ullanganman, jismonan baquvvat va sog'lom bo'lishga intilganman. Buning asosiy sabablaridan biri armiya safida xizmat qilish barcha yigitlar qatori mening ham orzum bo'lgan. Muddatli harbiy xizmatni o'tash chog'ida esa maqsadim o'zgardi, xizmatni kontrakt bo'yicha davom ettirishga qaror qildim. Kelajakda oliy harbiy ta'lim muassasasida tahsil olib, ofitserlar safida Vatan himoyachisi bo'lishga bor imkoniyatim bilan harakat qilaman.

## SINOVLAR ORTIDA MUVAFFAQIYAT MUJASSAM



Muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Doniyor Rahimovning vazifasi o'qchi. Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumanidan muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan yigit bugun o'ziga bo'lgan ishonchi yuksak, mashg'ulotlarda faol, maqsadi teran Vatan himoyachisi. Kitob mutolaasiga mehri baland Doniyorning orzulari ham o'ziga xos sarbaland. Uning hayotdagi shiori qiyinchiliklardan ortga chekinmay, oldinga intilish. Darhaqiqat, sinovlar ortida muvaffaqiyat mujassam. Bu haqiqatni

Doniyorning erishgan yutuqlaridan ham anglash mumkin.

– Safdoshim Doniyor bilan xizmatning ilk damlaridan boshlab yaqin do'stmiz, – deydi oddiy askar Janbulat Serikbayev. – Harbiy xizmatga moslashuv jarayoni har bir yigit uchun haqiqiy sinov pallas, desa bo'ladi. Qat'iy tartibga rioya qilish, saf tayyorgarligini o'zlashtirishdan boshlab, Vatanga sadoqat ontini ado etish, ota-ona va yaqinlarning sog'inchini yengish... Barchasida harakat va intilish, sabr-toqat mujassam. Shunday sinovli onlarda Doniyor menga har tomonlama tayanch, yelkadosh bo'ldi. Hozirda ham nazariy va amaliy mashg'ulotlarda bir-birimizga yordam berib kelyapmiz. Maqsadimiz – namunal posbonlar safida bo'lish.

Oddiy askar Rahimov haqidagi shunday fikrni uning yana bir safdoshi Po'lat Xo'jambergenov ham ta'kidlab o'tdi. Ha, harbiy xizmatda askariy bironlikning o'rni muhim. Zero bu muvaffaqiyatlar garovidir. Shu sabab Doniyor bugun a'lochi posbonlar safida. Muddatli harbiy xizmatni kontrakt bo'yicha davom ettirishni maqsad qilgan yuragi yoniq askar o'g'longa omad tilaymiz.

## "MUSOFIRLIKDA VATAN QADRIGA YETDIM"



Qoraqalpog'iston Respublikasining To'rtko'l tumanidagi Sho'raxon qishlog'i.

– Dadasi, o'g'limizdan bir oydirki, xat-xabar yo'q, sog'lig'i yaxshimikan ishqilib, xorijda ishlashiga bekor ruxsat berdingiz, xavotirdaman-da, – Qobuljon akaga kayfiyatsiz termildi ayoli Gulnoza opa.

– Musofirlik ham insonni tarbiyalaydi, tug'ilgan yurti, yaqinlari qadriga yetadi. Qolaversa, Alisherning o'zi shu yo'lni tanladi.

– Yoshlar nimalarni istamaydi, ishlayman desa, shu yerda ham ish ko'p edi. Mana, bir yildirki bag'rimizdan yiroqda.

– Xavotir olaverma, xotin, o'g'ling "syurpriz" qilib, oldimizga qaytib kelsa, ajabmas. Oxirgi marta gaplashganimda yaqin orada qaytaman, degandek bo'lgandi...

Muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Alisher To'ramuratov posbonlar safidagi jonkuyar va intiluvchan o'g'lonlardan. U harbiy xizmatga bo'lgan ishtiyoqi, ona yurtga muhabbatini mehr ila ta'kidlab o'tdi:

– Harbiy xizmatga bo'lgan qiziqishim bolaligimdan boshlangan. Harbiy xizmatchi bo'lgan amakimning parashyut bilan sakraganini ko'rib, harbiylarga havas qilganman. Xorijdagi musofirlikda esa Vatanim qanchalar azizligi, ota-onam mehri beqiyos ekanini anglab yetdim. Ona yurt, yaqinlar sog'inchi bilan yashadim va ahd qildim: "Jannatmakon yurtim, xalqim tinchligining himoyachisi bo'laman, albatta harbiy libos kiyaman!" Ayni damda askarlar safida ekanimdan xursandman. Komandirlarimiz bergan har bir saboqni safdoshlarim bilan ishtiyoq ila o'zlashtirib kelyapmiz. Armiya maktabidagi xizmatim harbiy soha vakili bo'lishimga zamin yaratishiga ishonaman. Xizmatni talab darajasida o'tab, kelajagimni, albatta sharafli sohaga bag'ishlayman.

## JANGOVAR TAYYORGARLIK A'LOCHISI



Sirdaryo viloyatining Guliston shahrida istiqomat qilayotgan Yanglish opa yolg'izgina farzandi Suhrobni harbiy xizmatga kuzatdi. Turmush o'rtog'i Soyibnazar aka olamdan o'tganidan keyin umrini o'g'luga bag'ishlagan ona uchun bu quvonchli holat edi, shubhasiz. Axir o'g'loli armiya safiga – yurt himoyasiga munosib topildi. Bu farzandining sog'lom, jismonan baquvvat, intellektual salohiyatga ega ekanidan dalolat. Ayni fursatda muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Suhrob Boboqulov onasi va yaqinlari ishonchini oqlab, namunal posbonlar safida e'tirof topmoqda. Muddatli harbiy xizmatga

qadar kasb-hunar kollejining arxitektura yo'nalishini bitirgan qahramonimiz ikki yil davomida sportning karate turi bilan shug'ullanib, salmoqli yutuqlarga erishgan.

– Armiya maktabida g'ayratli va bilimdon yigitlar safida ekanimdan mamnunman, – deydi Suhrob suhbat chog'ida. – Safdoshlarimning barchasida o'ziga xos ezgu maqsad bor, barchalari yurtga xizmat qilish ishtiyoqida. Komandirlarimiz nazariy va amaliy mashg'ulotlar orqali harbiy xizmat sirlarini mukammal o'zlashtirishimizga harakat qilyapti. Ayniqsa, kapitan Anvar Mamatqulov tomonidan olib borilayotgan jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlari barchamiz uchun qiziqarli. O'z o'rnida qattiqqo'l va talabchan, o'z o'rnida g'amxo'r komandirlarimdan minnatdorman. Maqsadim – onajonim va yaqinlarim ishonchini oqlab, kelajakda volidam orzu qilganidek, elga xizmat qiladigan ziyoli inson bo'lish.

E'tibor qilgan bo'lsangiz, maqolamizda tilga olingan askar o'g'lonlarimizning barchasida yurtga xizmat qilishdek ulug' maqsad mujassam. Barchasining o'z tanlagan yo'li, yuksak orzusi bor. Bu orzular ularni ezgu ishlarga qodir etishiga ishonamiz.

Zulfiya YUNUSOVA,  
"Vatanparvar"

## (HUJJATLI QISSA)

## Volidayi muhtaramam Boqiyaxon Rahmonberdi qizining yorqin xotirasiga bag'ishlayman.

Kitob varaqlaydi saksoningiz ham,  
Sasingiz sehrini suyib kelar Haq.  
Avliyo degani Sizdarsiz, onam,  
Sizdaylar jamlansa, yaraladi xalq...

\*\*\*

1995-yili ko'klam. Madinayi munavvaralik Husaynbek opalari Malikaxon, Sa'diya xonim va ayoli Naima xonim bilan bu gal Andijonning Eski shahar hududidagi Erkin mahallasida yashovchi Madaminjon ota va Boqiyaxon onaning uyiga mehmon bo'lib keldi. Kutilmagan bu tashrifdan Boqiyaxon ona ham, Madaminjon ota ham shoshib qoldi.

– Voy, qayoqdan kun chiqdi? Malika xonim, Sa'diya xonim, o'zim o'rgilay, Naimaxon, keling-ey. Buncha yoqimli shamol uchirib, bizni yo'qlab kelibsiz! – dedi so'zga chechan Boqiyaxon ona mehmonlar bilan quchoqlashib ko'risharkan.

– Keldik, mana, sizning ziyoratingizga, ammajon! – mehmonlarning yoshrog'i Naima xonim erkalanib gapirdi.

– Ammajon, degan tilingizga shakar, kelinposhsha!

Mehmonlar tashrifidan er-u xotinning xursandligi sezilib turardi. O'zbekiston mustaqillikka erishib, xalqimiz uchun haj ziyoratlari osonlashgach, avval Madaminjon ota, bir yil o'tib, Boqiyaxon ona haj ziyoratiga borganlarida Madinada istiqomat qiluvchi bu qarindoshlari bilan ko'rishgan, uylarida qisqa vaqt mehmon bo'lib, xayrlashayotganida Andijonga taklif qilib kelgan edi.

\*\*\*

Andijonning uch ulug' ziyolisi, ilmi yetuk kishilari eski shaharlik Rahmonberdi qori, Muhammadali mudarris, hakanlik Abdulazizboy zurriyotlarining bir dasturxon atrofida diydorlashuv suhbatlari juda dilgir, sog'inchli, izzat-u hurmat, padari buzrukvorlarni yodlov bilan kechdi.

– Dadamning (Muhammadali ota) armonli istagi sizlar bilan uchrashish, qarindoshlik rishtalarini boylash edi. Ammo O'zbekistondagi mustabid yillar bunga imkon bermadi. Bu armon ro'yobini bizga vasiyat qilib qoldirdi, – Sa'diya xonim Boqiyaxon onaning qo'lini ikki kafti orasiga olib, mehr bilan gapirdi.

– Bizning bu katta safarga chiqishimizni ko'proq Sa'diya opam tezlashtirdi, – dedi Naimaxon. – Opamizning harakati Malika opam va ukasi Husaynbekka ma'qul tushdi. Men esa uchaloviga hamroh bo'lishga izn so'radim.

– Bu ukam bilan kelinimiz Naimaxonning O'zbekistonga ikkinchi bor kelishi. O'tgan gal kelinimizning akalari, jiyanlari bilan uchrashib, bir oy mehmon bo'lishgan. O'shanda Husaynbek sizlarning makon-manzilingizni aniqlab, alohida kelishga ahd qilgan va tanishlardan sizga salom yo'llab, Madinadagi telefon raqamimizni qoldirgan ekan.

– Husaynbek jiyanimizning o'sha zukkoligi tufayli, hajga borganimizda sizlarni oson topdik, – dedi Boqiyaxon ona. – Sizlar bilan safarda ko'rishib tanishdim-u, biroq to'yib suhbat qurolmaganimizdan afsuslanib qaytgandik. Axir safar tartibiga ko'ra, Madinayi munavvarada bor-yo'g'i uch kun turilardi. Tavof rejaları bilan andarmon bo'lib, muborak xonadoningizda yarim soatgina bo'loldik xolos. Haj ziyoratidan kelganimizdan buyon sizlarni eslasam, dadajonimni xotirlayman. Akam, amakimni eslasam, sizlarni sog'inaveraman. Andijonga kelib, juda ulug' ish qilibsiz, aylanay sizlardan. Mana, endi armonlar ketguncha suhbatlashamiz. Xotiralar bari uyg'onadi, sog'inch, iztiroblar

eslanadi. Ollohimga shukr, ming qatla shukr!

– Safar ruxsatnomamiz muddati bir oy, ammajon. Suhbatlashib yayraymiz, – dedi salmoqlab Malika xonim. – Dadamiz, ya'ni amakingizga onamiz Umriniso va o'g'li Ibrohimjon, jiyani, ya'ni akangiz Abdulaziz safardosh bo'lganini bilasiz. Dadam bilan onamizning xorij muhojirligida topgan davlati – biz besh farzandi bo'ldik. Opalarim Obidaxon va Xayriyaxon keyin men, singlim Sa'diyaxon va inimiz Husayn. Biz bilan kelolmaganlarning bari salom yo'llashdi. Dadam bizga tug'ilgan yurti Andijon haqida ko'p so'zlardi. Onamiz esa bizdan o'zbek tilini unutib qo'ymasligimizni qattiq talab qilar, oilada faqat o'zbekcha so'zlashish biz uchun go'yo qonundek qat'iy edi. Agar birortamiz bu qonunni buzib, ingliz yoki arab tilida gapirib yuborsak, bormi, juda jahli chiqardi. Ota-onamizning o'z ona tiliga sadoqati tufayli, olti farzand barimiz o'zbek tilida nuqsonsiz so'zlashamiz.

\*\*\*

– Vatan baribir Vatan-da! Uni bejiz ona so'zi bilan qo'shib atamaydi, – dedi andijonlik ammasining juda oddiy, ammo fayzli uyidagi dasturxon atrofida o'tirgan Malika xonim. – Madina – muborak yurt, ammo dadam ham onamiz singari Andijonni, O'zbekistonni o'ta sog'inib yashadi. Aytishicha, tonggi tushlarida ko'pincha tug'ilgan yurtini, chorbog'ini ko'rarkan. Vatanni sog'inib aytgan hikoyalarini ko'p eshitganman. Hovlilarining Eski shaharda ekani, mevali daraxtlari ko'pligi, akasining qo'ligul bog'bon ekanini – hamma-hammasini bir necha marotabalab so'zlab bergan. Hatto bir kuni magnitofon tasmasiga "Andijon, Eski shahar Jome masjidiga yaqin hovli. Akamning ismi Rahmonberdi bo'lgan, qizining ismi Boqibillo. Oyshaxon ismli kelinoyimiz bor edi", deb yozdirib qo'yibdi. Bu bilan mendan keyin bolalarim O'zbekistonga borsin-u, manzil topishda qiynalmasin, demoqchi bo'lgan,



balki.

– Amakimning joylari jannatda bo'lsin, – xo'rsinibgina gapirdi Boqiyaxon ona. – Yurtimizning mustaqillikka erishuvi xalqimizning asriy orzusi edi. Orzular ro'yobini bizlarga ham ko'rsatgan Xudoyimga ming shukr. Mustaqillik bo'lmasa, bu diydorlashuvlar qayda edi. Akam Abdulaziz ham mustaqillikkacha vafot etmaganida, balki, kelarmidi.

– Akam o'zi-ku, olamdan o'tibdi, bolalari nega kelmadi demoqchisiz, ammajon, – dedi Sa'diyaxon. – Abdulaziz akangizning ayoli hind bo'lgani uchunmi, yoki shunchaki e'tiborsizlikmi, oilasida ko'proq hind, arab va ingliz tilida so'zlashadi.

– Kelinoyimning o'zi o'zbek tilini o'rganolmagach, bolalari albatta, o'rganmaydi, axir hind bo'lgani jiyanlarimning o'zbek tilida so'zlashishiga ta'sir qilmay qolmabdi-da. Mayli... bir kuni ular bilan ham aloqalarimiz bog'lanar. Sizlar bilan diydorlashganimiz uchun ham xursandmiz. Sizlarning kelishingiz qarindosh-urug'larimiz-u, qo'ni-qo'shnilarni ham xursand qiladi. Hali ko'rasizlar, sizlarni uyiga chorlab, mehmon qilay deganlar qatorlashib ketadi. Birinchi bo'lib, to'ng'ich qizim Manzuraxon taraddudni boshlab bo'ldi. U Xudoga shukr, yetti farzandning onasi bo'lgan. Kuyovimiz Omonullo oliy ma'lumotli muallim yigit. Erkak qudamiz ham juda obro'li, islom ilmi allomalaridan edi.

– Opa, Naima kelinimizning otasi qudamiz ham asli andijonlik ilmi kishi bo'lgan...

Qudamizning ismlari ham Abdulaziz. Dadamiz bilan musofir o'zbeklarning bir uchrashuvida tanishgan ekan, – dedi suhbatdan mamnunligi sezilib turgan Sa'diyaxon. – Ular Toif shahrida yashardi. Ibrohimjon akamning tavsiyasi bilan Naimaxonni kelinlikka o'zim tanlaganman.

– Baland didli ekansiz, Sa'diyaxon. Shundoq go'zal, oqila Naimaxon menga juda yoqdi. Bu kishining dadalari ham o'sha qatag'on yillarida yurtdan ketgan ekan-da.

– Ammajon, O'zbekistonga kelganki sayyoh Samarqand-u Buxoroni ziyorat qilgisi keladi. Biz ham Samarqand ziyoratini mo'ljallaganmiz.

– Tarixiy shaharlarni ko'rmay ketib bo'lmaydi, kelinposhsha, – dedi Boqiyaxon amma. – O'zim ham shu haqda aytmoqchi edim. Dunyoning to'rt tomonidan yil davomida sayyohlar keladigan bu muborak shaharni ko'rmay ketsalaringiz, xafa bo'laman. Bir voqeani aytay sizlarga.

Bilsangiz, farzandlarimning dadasi ancha yillar bemor bo'ldi. Qrim viloyatining Alupka shahrida davolanishiga to'g'ri keldi. SSSRda birinchi marta tajriba o'tkazilayotgan buyrak almashtirish amaliyoti u kishiga to'g'ri keldi.

Moskvalik Lyubov Yakovlevna degan professor operatsiya oldidan: "Hammasi yaxshi bo'ladi, qo'rqma! Hali butunlay sog'ayganingda, menga rahmat aytsan", deganida, "Eson-omon oyoqqa aytсам, sizni O'zbekiston bo'ylab sayohat qildirganim bo'lsin", debdi.

– Meni Samarqand va Buxoroga olib borsang bo'ldi. Bu afsonaviy tarixiy shaharlar haqida ko'p eshitganman. Bir ko'rib, ziyorat qilish orzum, – debdi professor.

Tajriba amaliyoti yaxshi o'tdi. Turmush o'rtog'im bilan professor Lyubaxonni avval Andijonda mehmon qildik. Lyubaxon milliy atlasdan ko'ylak kiygan, oqpar do'ppili, qirq o'rim sochli qizlarimni ko'rib, shunaqa yaxshi ko'rdiki, unga ham atlas naqshli krepedshindan o'zbekcha ko'krakburma ko'ylak tiktirib berdim... So'ng birgalashib,

Samarqand-u Buxoroga sayohatga bordik.

Oila, uy-ro'zg'or tashvishlari bilan yuravergan ekanman, sayyohlar dunyoning qay burchagidan kelib tomosha qilayotgan Samarqandni shu paytgacha ko'rmaganimga, o'zim o'zbek bo'la turib, o'z tariximga, o'z milliy-madaniy boyliklarimga e'tiborsiz bo'lganimga xijolat bo'ldim. Ishonaverim, ulug' ajdodlarimizning qadamjolarini ziyorat qilganim sari yuragim tozarganday bo'laverdim. Urgutga borib, Hazrati G'avsul A'zam qadamjosiga yetguncha o'n ikkita qadamjolarga to'xtadik. Ziyorat qildik. Buxoro ham professor shifokorimizga juda yoqdi. O'shanda yurtimiz Xudoning nazari tushgan tabarruk makon ekaniga tan berganman. Vatanni ilojisiz tark etib, qaytolmay, iztirob ichra yashagan musofir bobolarimizning sog'inch-u hasratini tushunganday bo'lganman. Taassurotlarimni to'ldinlanib so'zlab berganimda shoir qizim "Samarqand ziyoratida" degan she'r bitgandi. Hozir kelinimni chaqiraman, o'qib beradi.

*Ruhiyatni bosibmu chang,  
Subh-u shoming bo'lsa diltang,  
Tozarishga xohish sezsang,  
Samarqandni ziyorat qil!  
Qadamjolar ulug' g'oyat,  
So'zlab turar ming hikoyat,  
Yuz-ko'zing yuv, ol tahorat,  
Samarqandni ziyorat qil!  
Toza fikr-u oq tasavvur,  
Yuragingga o'ralgay nur,  
Jilmayganday bobo Temur,  
Samarqandni ziyorat qil!  
Koshin g'ishtlar qatma-qatdur,  
Har qati ishq-muhabbatdur,  
Qiroatdur, tilovatdur,  
Samarqandni ziyorat qil!  
Obidakim gulnafas, hur,  
Bibixonim atalgandur,  
Ta'zim aylab topgin huzur,  
Samarqandni ziyorat qil!  
Jilvalanib boqqan bari –  
Ulug'bekning yulduzlari,  
Yuksalgani falak sari –  
Samarqandni ziyorat qil!  
Bu maskanning sayyohi ko'p,  
Hayrat ichra kelar to'p-to'p,  
Hurmatin qil, tuprog'in o'p –  
Samarqandni ziyorat qil!  
Bunda har joy tabarrukdir,  
Ey Zamira, ohista yur,  
Yurgan sarving tozarar dil,  
Samarqandni ziyorat qil!*

– Bu ta'riflardan keyin Samarqand ziyoratiga bormasak, bo'lmaydi, – mehmonlarning yakdil xulosasi shu bo'ldi. – Bizning ham yuraklarimiz yayrab, dadamizning nega O'zbekistonni shuncha yaxshi ko'rgani, sog'inganini yana bir bor his qilamiz.

Samarqand-u Buxoro ziyorati mehmonlarga ham juda yoqdi. Registon maydonida suratga tushdi. Buyuk muhaddis imom al-Buxoriy maqbara va masjidini tomosha qilayotib, ayniqsa hayajonlandi. Ulug' muhaddis yodgorligining mustaqillik sharofati bilan obod bo'layotganidan quvondi.

\*\*\*

Ro'ziboy xalfaning ota-onasidan keyin beva opasi qaramog'ida qolgan yolg'iz o'g'li Madaminjon tabiatan yuvosh, beozor bo'lib ulg'aydi. Oyshaxon opasi va jiyanalari bilan ahil-inoq kun ko'rib yashardi. O'n

olti yoshga kirganda urush tufayli Andijonga ko'chirib kelingan, Stalin nomidagi samolyot zavodiga ishga kirib, oz bo'lsa-da, maosh ola boshladi.

Zavoddagi katta dastgohlar ostiga to'kilgan qoramoy yuqi ishchilarga xalaqit bermasligi uchun lattaga artib olinardi. Qoramoy keltiruvchi mashinalar turgan joyda mashinadan oqqan moyni tozalab olish zarur bo'lib, Madaminjon kabi voyaga yetmagan ishchilar asosan shunaqa tozalash ishlarini bajarardi. Bir kuni Madaminjon sex boshlig'idan o'sha chiqindiga tashlanadigan qoramoyli latta-puttallarni uyga olib ketishga ruxsat so'radi.

– Uni nima qilasan? – hayron bo'lib so'radi boshliq.

– Pechkaga yoqish uchun o'tinimiz kam, bori ham ho'l. Shu moyli lattani oz-ozdan tutantiriq qilamiz.

Shahar joy, ayniqsa Madaminjonlarning hovlisi juda tor edi. Hovli sahnidagi katta bir tup tut daraxtidan boshqa kesib o'tin qilgulik hech narsa yo'q edi. Tutni ham pastki shoxlarini allaqachon qirib tugatgan. Qishning sovuq kunlarida mana shu tutantiriq bo'lgulik lattalar ham harna edi. Garchi O'zbekiston front orti sanalsa-da, xalq urush zahmatlari ila qiynalib yashardi.


– Qani, yonimga o'tiring, Madaminjon, – chaqirdi uni opasi Oyshaxon. – Sizga dadamiz Ro'ziboy xalfa oilasining g'ayritabiiy mo'jiza tufayli omon qolgani. Ro'ziboy avlodining davom etishi uchun mo'jizaviy bir lahza sabab bo'lgani haqida aytib beray, uka. Bu, ayniqsa, siz uchun muhim.

– Men 1901-yilda tug'ilgan ekanman. Mengacha ota-onamizning bir necha farzandlari ba'zilar tug'ilib, ba'zilar tug'ilmay nobud bo'lib, juda aziyat chekkan ekan. Bundan yurak oldirib qo'ygan ota-onam mening ham o'lib qolishimdan xavotirlanib, doim nola bilan duoda yurgan kunlarida mahallaning yoshi ulug'laridan biri:

– Siz Ollohdan shu farzandingiz uchun jon kaforati bo'lishini so'rab, bir jonliq so'yib, aqiqah ehsoni qilib yuboring. Qoidasi shundayki, so'yilgan qo'yning go'shtini duogo'ylarga yedirib, suyaklarini oq xaltaga o'rab, farzand ismini yozib qabristonga ko'mib kelinadi.

Bu maslahat umidvor dadamizga ma'qul kelibdi. Onamiz bilan maslahatlashib, xonadonning bor-yo'g'i boyligi hisoblangan birgina sog'in sigirini sotib, puliga bitta qo'y va aqiqah ehsonida yoziladigan dasturxon uchun zarur yeguliklar olish maqsadida mol bozoriga yo'l olibdi.

Kattagina sigirni yetaklab mol bozoriga kirayotganida bir o'g'ri odam otamning iziga tushibdi. Dadamiz sigirni yaxshi pulga sotibdi-da, o'g'ri, kissavurlardan ehtiyotlab, pulni yaktagining ichki cho'ntagiga solib, hech narsaga chalg' olmay, to'g'ri uyga qaytibdi. O'g'ri ham izma-iz kelaveribdi. Ammo to'yuq yetib kelguncha ham pulni o'g'irlash imkonini topolmabdi. Sigir savdosidan ko'ngli to'lgan dadamiz onamiz bilan yana bir karra pulni sanab, ehson sarf-xarajati uchun xomcho't qilishibdi, kelasi bozor kuni qo'y va boshqa ehson zaruratlarini olish uchun reja tuzib, pulni yana oq durraga tugibdi. Kech bo'lganda, durraga tugilgan pulni ehtiyotkorlik bilan yostig'i ostiga qo'yib, uyquga yotibdi.



Niyatiga yetolmagan o'g'ri ham anoyi emas ekan. "Baribir olaman", deb qaysarlarcha, ahd qilibdi chog'i, er-u xotin va bolaning qattiq uyquga ketishini tun yarimlaguncha kutibdi.

Kasbiga xos rejasi bo'yicha uyga sezdirmay kirib, beshikni uydin olib chiqib, ancha nari – hovlining chetrog'iga qo'yibdi-da, chaqaloqni chimchilab yig'latib, o'zi yashirinib olibdi.

Onalar ziyrak uxlaydi, bolasining ancha olisidan kelgan yig'isini eshitib, onamiz ko'zini ochibdi-yu, qarasa, yonginasidagi beshik yo'q, naq joni chiqib ketayozibdi.

– Voydod, bolam yo'q! – deb birdan faryod ko'tarib yuboribdi.

Onamizning faryodiga otamiz uyg'onib ketibdi. Tashqaridan bola yig'isi kelayotgani bois ikkalovi ham go'dak yig'isi kelgan tarafga yuguribdi. Ayni shu payt panada pisib turgan o'g'ri yostiq ostidagi pulni olish uchun uyga kirib olibdi. O'g'ri endi o'rin ko'rpaga o'tirib, shundoq yostiqni ko'targan mahal... Birdan hammayoq gumburlab, qasira-qusur bo'lib ketibdi. Zilzila boshlanibdi. Yer shu qadar qattiq silkinibdi, uyning loy tomi, sinch-u to'sinlari lahzada o'pirilib tushibdi. Bir lahzaning o'zida ro'y bergan bu fojidan hammayoq vayron bo'libdi. Uyga kirib olgan o'g'ri esa uyning tuprog'-u guvalasi, yo'g'on to'sinlari ostida qolibdi.

Bu o'sha 1901-yildagi Andijon zilzilasi ekan, uka. Ota-onamiz va ularning beshikdagi qizi – men, zilzila talafotidan o'g'ringin rejasini sabab omon qolibmiz. Ochiq hovli sahnida qo'rqqanidan beshikni quchoqlaganicha titrab, istig'for aytayotgan ota-onamiz jonlarining bu taxlit omon qolganidan o'zlari ham hayron ekan.

Beshikni kim tashqariga olib chiqdi, kim ularning talafotidan bu taxlit omon qolishiga sabab bo'ldi, bilolmay, nuqul "Astag'firulloh, Olloh, Olloh, o'zingga shukr!" deyarkan xolos. Dadamiz zilzila to'xtab, qasira-qusur tingandan keyin hovliga solib o'tirish uchun bir ikkita

ko'rpacha olib chiqish uchun batamom qulab tushgan uyining yog'och-u tuprog'ini ajratishayotganida esa yostiq ostiga qo'yilgan durradagi pulni changallagancha o'lib yotgan odamga ko'zi tushibdi. Otamiz ushbu voqeaga tushunib yetganday bo'libdi. Ollohdan qudratiga yana bir bor imon keltirib, "Haq asrasa, balo yo'q!" degan hikmatga amin bo'libdi. O'sha bir lahza... Ilohiy mo'jiza sodir bo'lgan, bir lahza... bizning – Ro'ziboy xalfa avlodining davom etishi uchun sabab bo'lgan ekan, uka. Ro'ziboy xalfa avlodining davom ettiruvchisi esa sizsiz!

– Opa, qulagan uyning to'sin-u tuprog'i ostidan topilgan haligi odamning o'g'ri ekani ayon bo'lganda...

– Uning kimligini bilmasalar ham dadamiz izzat-ikrom ila yuvib, kafanlab, janoza o'qitib, ko'mibdi. O'zi, ayoli va yolg'iz farzandini zilzila talafotidan omon qolishiga sabab bo'lgan, haloskor bu bandayi mo'minning gunohlarini maxfirat etishini Ollohdan so'rab, xatmi qur'on ham bag'ishlabdi.


El qatori dadamiz ham qulagan uyini qayta tiklab, tuprog' ostidan chiqqan puliga o'zlari rejalagan aqiqah ehsonini o'tkazibdi. Keyin... oradan yigirma uch yil o'tib, siz tug'ilibsiz, uka.

Nasib bo'lsa, siz Ro'ziboy xalfa avlodini davom ettirasiz. Ancha keksayib qolgan ota-onamiz o'n sakkiz kun farq bilan ketma-ket vafot etishdi. Dadamiz sizni menga omonat topshirgan, menga o'zing ukangga g'amxo'rlik qilasan, deb vasiyat qilgan.

(Davomi bor)

**Zamira RO'ZIYEVA,  
O'zbekiston Yozuvchilar  
uyushmasi a'zosi**

Turkistonda jadidchilik milliy ozodlik kurashi jarayonida yuzaga kelgan, o'zbek xalqi tarixida yangi sahifani ochib boshlagan ijtimoiy harakat bo'lgani bilan ajralib turadi. Ularning dunyoqarashida vatanparvarlik, millatparvarlik, ma'rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik kabi g'oyalar yetakchilik qilgan. O'lkani mustamlaka zulmidan ozod qilishni jadidlar hamma narsadan ustun qo'ydi. Jadid ziyolilari erk, istiqbolga erishish uchun milliy ongini o'stirish zarurligini payqadi. Shu orqali milliy uyg'onish yasamoqchi bo'ldi. Buni esa ta'lim va tarbiyada, ma'rifatda deb bildi. Mana shuning uchun ham jadidlar yangicha ta'lim va tarbiya tizimini qaror toptirish yo'lida hormay-tolmay ishladi.



XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bu harakatning tarixiy ahamiyati nihoyatda katta bo'lgan. Bu davrlarda jamiyatning ma'naviy inqirozi chuqurlashgan bo'lib, milliy madaniyatni ko'tarmay, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo'lmay ma'rifat, tarbiyaviy ishlarni keng yo'lga qo'ygan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy taraqqiyotga imkoniyat yaratib bo'lmadi. Jadidlar millatning ma'naviy kamoloti yo'lida o'zining butun kuchi va iste'dodini safarbar etishga tayyor bo'lgan fidoyilar edi. Ular millatni qoloqlik, xurofot botqog'idan olib chiqish uchun harakat qilarkan, bunda shariatga qat'iy rioya qilish orqali maktab va madrasalarda ta'lim tizimini dunyoviy ilmlarni berish asosida isloh qilish g'oyasini ilgari surgan va bu borada o'zlarini amaliy harakat namunasini ko'rsatgan. Xullas, jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr boshlarida milliy uyg'onish va milliy ong yuksalishida katta rol o'ynagan.

Jadidchilik g'oyalarini uning yorqin vakillaridan Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori, Fayzullo Xo'jayev, So'fizoda, Tavallo, Is'hoqxon Ibrat kabilari g'oyat og'ir sharoitlarda targ'ib etgan. Ular millatning kamolotini yuksaltirish, uning qadr-qimmatini yerga urishga yo'l qo'ymaslik borasida katta ishlar qilgan. Ma'rifatchi jadidchilar og'ir moddiy qiyinchiliklar, g'oyaviy-siyosiy tazyiqlarga qaramay, millatning ma'naviy yuksalishi uchun imkoniyatlar yaratishga harakat qildi.

Tarixning murakkab, mas'uliyatli burilish davrlarida millatning milliy ongini yuksaltirish, iftixor tuyg'usini kuchaytirish birinchi darajali vazifalardan ekanini anglab yetganliklari uchun ham bu boradagi barcha ishlarni o'z zimmasiga oldi. Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori va boshqa jonkuyar jadidlar maktablar ochar, o'zlarini dars berar, o'quv qo'llanmalari yozar, nashr etar, jonbozlik ko'rsatardi. Bu yo'lida, hatto o'z

# JADIDCHILIK G'OYALARI

## hayotga qanday tatbiq qilingan?

madablag'larini ayamagan. Bunday saxovatpeshalik, savobtalablik kabi ezgu ishlar hozirgi mustaqil rivojlanishimiz uchun ham nihoyatda zarur. Biz erkin fuqarolik jamiyati qurishni, barpo etishni orzu qilmoqdamiz va shunga intilmoqdamiz.

Jadidchilik – yangilanish, yangi usul ma'nosini anglatadi. U yangi zamonaviy maktab, milliy taraqqiyot usullari, yo'llari tarafdorlarining umumiy nomi. Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari: Turkistonni o'rta asrlik, feodal qoloqlik, xurofotlardan ozod qilish, "usuli qadim"ni inkor etgan holda o'lkani, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiyot yo'lga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, konstitutsion, parlament va prezident idora usulidagi ozod hamda farovon jamiyat qurish, turkiy tillarga davlat tili maqomini berish, milliy qo'shin tuzish va boshqalardan iborat.

Jadidlar harakatining Turkistondagi namoyandasi, uning nazariy asoschilaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiydir (1879–1919). Behbudiy Samarqand shahrida ruhoniy oilasida tug'ilgan. Yoshligidan ilm-fanga qiziqadi, hisob, huquq, din, arab va fors tillaridan chuqur saboq oladi. U haj ziyoratini ado etib, Makka va Madinaga boradi. Misr va Turkiya shaharlarida bo'ladi. Peterburg, Minsk, Qozon, Ufa va Orenburg kabi Rossiya shaharlarida bo'lib, yangi davr

madaniyati bilan yaqindan tanishadi. Mahmudxo'ja Behbudiy, bolalarga diniy va dunyoviy ilm berish bilan birga, millat farzandlarini zamonaviy ilm olish uchun taraqqiy topgan mamlakatlardagi o'quv yurtlariga yuborish kerak, degan masalani o'rta tashladi. U quyidagi uch qoidani olg'a surdi:

- 1) zamon talablaridan kelib chiqib ish ko'rish;
- 2) millat taqdiri va istiqbolini belgilovchi milliy kadrlarni yetishtirish;
- 3) dunyo miqyosida fikrlay oladigan, chet ellar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy munosabatlarda jahon andazalari darajasida ish yuritadigan millatga aylanish.

Asrimiz boshlarida ilgari surilgan bu qarashlar hozirgi davrimiz uchun mosligi bilan ham ahamiyatlidir. Bunga Behbudiy orzu-umidlarining ro'yobga chiqishi, deb qaramoq lozim. Behbudiy ma'rifatning ozodlikka olib borishdagi rolini yaxshi tushundi. U shunday yozadi: "Maorif bo'limida ishlayturg'on musulmonlarning boshini silangiz... o'rtadan niqobni ko'taringiz, Turkiston bolalarini ilmsiz qo'ymaningizlar. Hammaga ozodlik yo'lini ko'rsatingizlar..." Mahmudxo'ja Behbudiy erksevarlik, millatparvarlik, ma'rifatparvarlik g'oyalari uchun ta'qib ostiga olindi va o'ldirildi.

Jadidchilik harakatining ko'zga ko'ringan vakillaridan

yana biri Munavvarqori Abdurashid o'g'li (1878–1931). U Toshkentda tug'ilgan. Munavvarqori ham boshqa jadidlar kabi Vatan ravnaqi va millat taraqqiyotining asosiy omili deb xalqni savodli va ma'rifatli qilishni tushunadi. Ana shu fikrdan kelib chiqib, Toshkentda 1901-yilda yangi uslubdagi maktabni ochadi, unga rahbarlik qilib, musulmon bolalarni o'qitadi. O'z zamonasi uchun maqbul bo'lgan "Adibi avval", "Adibi Soniy", "Yer yuzi" kabi darsliklar yozadi. Ko'proq yetimlarni, beva-bechoralarning bolalarini o'qitishga ahamiyat beradi. Munavvarqori ta'lim-tarbiya ishlarini isloh qilmay, xalqning ongini oshirmay, madaniy saviyasini ko'tarmay, jamiyatda katta o'zgarishlar qilish aslo mumkin emasligini tushunib yetadi. Munavvarqorining millat taraqqiyoti uchun olib borgan g'oyalari tufayli sobiq zo'ravon sho'rolar hukumati uni ta'qib ostiga oldi. 1931-yil 25-aprelda esa otib tashlandi.

Milliy uyg'onishga chorlovchi g'oyalarni ilgari surgan jadid harakatining yana bir yirik vakili Abdulla Avloniydir. U millatning ma'naviy inqirozda bo'lishini tanqid qildi, barchani savodli bo'lish, zamonaviy fan, madaniy yutuqlarni egallashga chaqirdi. Abdulla Avloniyning "Ilm insonlarning madori,

hayoti, rahbari, najotidir" degan g'oyasi ma'rifatparvarlik, jadidchilik harakatining dasturini tashkil etadi. U ma'rifatparvar safdoshlari singari mazlum Turkiston ahlini ilm-ma'rifat ziyosidan bahramand qilishda unutilmas xizmatlar ko'rsatdi.

"Turkiy Guliston yoxud axloq" kitobida ma'rifat, ilm-fanning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni haqida qimmatli fikrlarni bayon qilgan. Allomaning qarashlarini o'rganish – o'zligimizga qaytish jarayoni kechayotgan bir paytda alohida ahamiyat kasb etadi. Avloniy millatimiz bolalarini ma'rifatga chorlab quyidagilarni yozadi: "Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas fazilatdir. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatlarimizni oyna kabi ko'rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilib, savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ajratib berur. To'g'ri yo'lga rahnamolik qilib, dunyo va oxiratda mas'ul bo'lishimizga sabab bo'lur. Bizlarni ilm jaholat qorong'uligidan qutqarur. Madaniyatli, ma'rifatli dunyosiga chiqarur. Alloh taolaga muhabbat va e'tiqodimizni orttirur".

Jadidchilik g'oyalarini chuqur ishlab chiqib, uni hayotga tatbiq qilganlardan Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, A. Qodiriy, A. Avloniy, Munavvarqori, F. Xo'jayev, So'fizoda, Is'hoqxon Ibrat va boshqalar millatimiz kamolotini yuksaltirish, qadr-qimmatini yerga urishga yo'l qo'ymaslik uchun katta ishlar qilgan. Ma'rifatchi jadidlar juda og'ir sharoitlarda g'oyaviy-siyosiy tazyiqlarga qaramay, millatimizning ma'naviy yuksalishi uchun imkoniyatlar yaratishga harakat qildi. Tarixning murakkab burilish davrlarida millatning milliy ongini yuksaltirish, iftixor tuyg'usini kuchaytirishni birinchi darajali vazifa, deb bildi.

Jadidchilik bir asr davomida avval kommunistik g'oyaning tazyiqida, keyinchalik iskanjasida bo'lib, to'la namoyon bo'la olmadi. Uning zaminlari shakllanishi tarzini o'rganishga intilgan ham tazyiq ostiga olindi. Mustaqillik sharofati bilan Turkiston xalqlarining erki, mustaqilligi, milliy davlatchilik g'oyalari, ma'rifati uchun kurashgan vatanparvarlarning muborak nomlari tiklandi, asarlari chop etildi. Jadidlarning g'oyalari o'lmas g'oyalar bo'lgani uchun ham mustaqillik bilan birga hayotimizga qayta kirib keldi.

Turkiston xalqlarining erki, ozodligi, milliy davlatchilik g'oyalari ma'rifat va ma'naviyat rivoji uchun kurashgan vatanparvarlarning muborak nomlari tiklandi, asarlari chop etildi. Ularga qatag'on qilinganlar xotirasiga atalib, Toshkentda katta yodgorlik majmui o'rnatildi, muzey tashkil etildi.

**Podpolkovnik  
Furqat YULDASHEV,  
Qurolli Kuchlar  
akademiyasi  
kafedra boshlig'i  
o'rinbosari.  
Podpolkovnik  
Rustam AXUNOV,  
kafedra o'qituvchisi**



# INSONIYLIK BOR BO'LSIN!

Ijtimoiy tarmoqlarni kuzatishni yoqtiraman. Ba'zan o'zbek ayol-qizlarimiz sha'niga shu qadar xunuk so'zlar aytiladiki, ilon po'st tashlavoradi. So'z ham o'q misoli, yaralaydi, o'ldiradi. Bir ayol, bir ona sifatida, bu haqoratlar menga aytilmayapti, deb beparvo bo'la olmayman.

Aslida dunyoning eng yaxshi ayollari o'zbek ayollaridir. Ularni yaxshi ko'raman. Eng tuban qilmishlarda ayblansalar ham ularni oqlash uchun bir so'z aytgim keladi. O'zbek ayollari faqat tug'ishni biladi, bola sotadi, degan malomatlardan qalbim og'riydi. Yo'q emas, bor. Ammo ular milliondan bittadir, ikkitadir. Shunday ayollarni ko'rganman: bolasining yashab qolishidan hech qanday umid yo'q, yashab qolganida ham undan hech qanday xayr yo'q, ko'z kuyugi, yurak dog'i bo'ladi. Biroq ona... ona ekan-da, zor yig'lab, doktorlarga yalinadi: "Apparatni o'chirmang, biroz bo'lsa ham yashasin!.."

O'zbekning ayollari. Baxti to'kislar ham ko'p, jamiyatda o'z o'rnini topgan, o'z so'zini aytayotganlari ham ko'p, bir kam dunyo ekan, baxti kelishmaganlari ham bor. Aroxo'r erga ham sabr qiladi, fidokorlik bilan o'zini bolalariga bag'ishlaydi, kelin bo'lib tushgan xonadoni a'zolarining har birini ko'ngliga yo'l topishga intiladi, oshxona yumushlari faqat va faqat uning

zimmasidagi vazifadek... Aytasang ado bo'lmaydigan ishlar, ammo ular uddalaydi.

Yaqinda yurtimizga mehmon bo'lib kelgan, qozoq ayolining e'tirofini eshitdim, to'lqinlanib ketdim, hamma-hammaga, ana, eshitdingizmi, degim keldi. So'zma-so'z keltira olmayman, mazmuni shunday: "Men dunyoning ko'p davlatlarida bo'lganman. Rivojlanish, taraqqiyoti yuksak muazzam shaharlar, yurtlar ko'rdim. Ammo yonginamizda joylashgan O'zbekistonga birinchi marta kelishim. Toshkentda ovqatlanish uchun kafega kirdik. Qo'limni yuvгани kirayotsam, ikkita xizmatchi qiz yugurib keldi:

- Opa, keling, biz yordam beramiz.  
- Rahmat, ovora bo'lmanglar, men o'rganib qolganman, aravachada harakatlanishim qiyin emas.  
- Opa, iltimos, bizni savobdan bebahra qilmang, keling, yordamlashaylik!

Qizlar meni hayratda qoldirdi. Men hech qayerda shu ikki o'zbek qizi kabi yordamsevar, savobtalab insonlarni ko'rgan emasman. Tarbiyani ko'ring, madaniyatni ko'ring! Ko'zlarimga yosh keldi".

## SIZ OTAMDEKSIZ...

Bir necha yillar avval Buxoro shahriga xizmat safarida toshkentlik ofitserning oilasi bilan tanishgan edim. Ofitser hamma harbiy xizmatchilar kabi bir inson. Balki boshqalarga namuna bo'lishga arziqli xizmat qilar. Rostini aytganda, uning faoliyati bilan qiziqqanimiz yo'q. Ofitserning rafiqasi haqida eshitib, ularning xonadoniga borgan edik.

Vatan himoyasidek sharaflı ishga mas'ul ofitser qolib, uning rafiqasi haqida gapirayotganimiz, uni izlab borganimiz o'quvchilarni ajablantirishi tabiiy. Ha, aynan ayolni qidirib bordik, to'g'rirog'i uning ezgu va savobli amali haqida eshitib, bordik.

Ayrim insonlarning fikricha, oilada yolg'iz o'sgan farzandlar xudbinroq bo'lar ekan. Bahsli fikr. Chunki hamma narsa tarbiyaga bog'liq.

...Qaynota saratonning og'ir turi bilan xastalandi. Xotini olamdan o'tgan, farzandlari alohida chiqqan, o'z tashvishlari bilan yashardi. Qariya esa bironing ko'magiga muhtoj. Shunday og'ir pallada ofitser o'g'lining xotini joniga oro kirdi. Olis viloyatdan yetib keldi.

Kelin katta bo'lgan xonadonida yolg'iz farzand edi. Fidokor bir onaning tarbiyasini olgan mehribon bir qiz. Qaynotasining og'ir xastalik bilan yolg'iz o'zi kurashishiga jimgina qarab tura olmadi. Agar u qaynotasining yonida bo'lmasa ham hech kim undan o'pkalmas edi. Yaqinrog'ida qiz-o'g'illari bor-ku, otalarini parvarish qilish aslida ularning burchi, degan o'y xayolining bir chekkasiga ham kelmadi. O'zini qaynotasini parvarish qilishga burchli deb bildi. Onasi unga shunday go'zal tarbiya bergan edi. Bugun nihoyatda noyoblashib borayotgan mehr-oqibat, keksalarga shafqat, hurmat ko'rsatish hayotining katta qismini hamshiralik ishiga bag'ishlagan onasidan o'tgan edi.

Ota og'ir dard bilan olishar, ojiz edi. Ammo u erkak edi. Kelinidan iymanardi. Kelinining ko'magisiz esa o'zini eplay olmasdi. Yosh ayol qaynotasining uyatdan o'tanayotganini angladi. Yoniga o'tirib dedi: "Otam erta vafot etib ketgan. Men uning mehrini ko'rmadim. Agar shunday dard bilan o'z otam og'riganda jonimni berib qarar edim. Mendan tortinyapsiz, bilaman, tortinmang, siz ham otamdeksiz, sizga juda og'ir ekanini hammadan ham ko'proq tushunaman. O'g'lingiz harbiy xizmatda bo'lmaganlarida yoningizdan jilmasdi. Ular uchun bu ishni men zimmamga olaman..."

Qaynota kaftini yuziga bosdi, ko'z yoshlari yuzidagi ajinlar oralab sizdi...

Bu buyuk qahramonlik emas, albatta. Shu o'rinda o'zingizga savol berib ko'rishingizni istar edim: "Xo'sh, men shu kelin o'rnida bo'lsam, qanday yo'l tutar edim?" Rost javob bera olasizmi?! Ha, hatto javobi ham murakkab. Suv yutsa ham ichida turmaydigan xasta parvarishi qiyindan qiyin ish. Fidokor qizlar, kelinlargina bu ishni beminnat bajaradi. Va biz ularni tobora shafqatsizlashib borayotgan dunyoga ibrat qilib ko'rsatgimiz keladi.

## MEHRIBON O'ZBEK AYOLI

Ijtimoiy tarmoqlarda turli guruhlar bor. Ulardan o'zim uchun qiziqarli bo'lganlarini kuzatib boraman. Shulardan biri "Turkiyadagi o'zbek ayollari" guruhi. Guruhda bir-birlaridan bilmaganlarini so'raydilar, bo'shagan ish o'rinlari haqida boshqalarga xabar beradilar, qiyinalib qolganlarga maslahatlashib ko'mak uyushtiradilar. Kuyunchakliklari, bir-birlarini qo'llab-quvvatlashlaridan negadir, xuddi menga taalluqli joyi bordek sevinaman.

Yaqinda bir e'longa ko'zim tushdi. Unda yotib qolgan qariyaga qarash uchun boquvchi izlanayotgan edi. Yurtdoshimiz qoldirgan e'londa O'ZBEK AYOLI MEHRIBON bo'lgani uchun o'zbek boquvchi ayolini istayotganlari yozilgan. Yana o'zbek ayoli orqali izlanyapti.

O'zbek ayoli... Bugun u dunyoning to'rt burchiga sochilib ketdi. Ilm yo'lida, tirikchilik ilinjida. Xullas, tinib-tinchimaydi, bolajon, oilaparvar, mehnatkash ayollar. Ularni yaxshi ko'raman, tovonlariga tosh tegmasin, hammalariga sevimli, qadrli bo'lib yashash baxtini tilayman.

**Inobat IBROHIMOVA,**  
"Vatanparvar"

# YOSHLAR MA'NAVIYATINI

## yuksaltirish milliy qadriyatlar va ma'naviy meros

Katta umidlar bilan olg'a qadam tashlayotgan O'zbekiston bugungi kunga kelib, taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Dunyo tamaddunida yurtimizni "Yangi O'zbekiston", "Yangilanayotgan O'zbekiston" kabi nomlar bilan e'tirof etmoqda. "Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz!" degan bosh g'oyani o'zida mujassam etgan ezgu ishlarning amalga oshirilayotgani bu yurtida istiqomat qilayotgan har bir insonning baxt-saodati uchun xizmat qilmoqda. Bu e'tirof yangi davlat va jamiyat qurish yo'lida tarixiy ishlarni amalga oshirgan xalqimizga xos yaratuvchanlik shijoati, bilim hamda salohiyati, kuch va imkoniyatlari hamda olib borilgan keng ko'lamlil islohotlarga nisbatan izhor etildi, deyish mumkin. Buyuk ajdodlarimizga xos azm-u shijoat, xalqimizning metin irodasi, tobora ulg'ayib kelayotgan barkamol avlodimizga tayanib, jamiyat hayotini tubdan yangilash yo'lini izchil davom ettirish bugungi kunda eng dolzarb vazifadir.

O'zining noyob asarlari hamda olamshumul kashfiyotlari bilan jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk mutafakkir va qomusiy olimlardan biri, ilk Renessans davrining yorqin namoyandasi Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-ma'rifiy merosini yanada chuqur o'rganish va keng targ'ib qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-avgustdagi "Buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi va unga ko'ra, buyuk ajdodimiz yubiley tantanalarini nishonlashga jiddiy tayyorgarlik ko'rilishi va munosib nishonlashga doir vazifalarning belgilanishi ayni muddao bo'ldi. Jumladan, 2022-2023-yillarda Abu Rayhon Beruniy majmuasi qurilishining rejalashtirilishi, bog' barpo qilinishi, kitoblarining chop etilishi va shu kabi ezgu ishlarning amalga oshirilishi maqsad etib qo'yilgani yosh avlod tarbiyasida muhim o'rin tutadi.

O'zbekistonda Beruniyning ijodiga katta e'tibor berilmoqda. Uning hayoti, faoliyati va ilmiy merosi haqida H. Abdullayev, I. Mo'minov, V. Zohidov, Y. G'ulomov, U. Karimov, S. Bulgakov, A. Sharipov kabi olimlar risola, asarlar yaratdi. Unga bag'ishlangan qator xalqaro ilmiy konferensiyalar o'tkazildi va bugungi kunda ham bu ishlar davom ettirilmoqda.

**Zotan, dunyo ilm-fani rivojiga o'zining beqiyos hissasini qo'shgan ulug' alloma Abu Rayhon Beruniyning nomi mangulikka daxldor.** Uning ilm-u ma'rifat orqali olamni ezgulikka, taraqqiyotga yetaklash maqsadida avlodlarga qoldirgan buyuk merosi insoniyat uchun bebaho xazina, shu bilan birga, biz avlodlarga qoldirgan ilmiy va ma'naviy merosi beqiyosdir.

Qomusiy alloma Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy, Forobiy va Ibn Sino bilan bir qatorda turuvchi musulmon Sharqi Uyg'onish davrining eng mashhur namoyandasi. O'z davrida birinchi bo'lib, Yerning shar shaklida ekanini va u Quyosh atrofida aylanishi g'oyasini ilgari surgan, keyinroq Yer radiusini katta aniqlik bilan o'lchagan.

**Buyuk alloma o'zidan so'nggi avlodlarga katta ilmiy meros qoldirdi.** Beruniyning o'z davri ilm-fanining turli sohalariga oid 160 dan ortiq turli hajmdagi asari, yozishmasi qolgani bizga ma'lum. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan katta hajmdagi asarlaridan tashqari, astronomiya, astrologiya, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, geografiya, arifmetika, tibbiyot, farmakognosiya, tarix, filologiya masalalariga oid qator risolalar yaratdi va sanskrit tilidan arabchaga, arab tilidan sanskrit tiliga tarjimalar qildi, badiiy ijod bilan ham shug'ullanib she'rlar yozdi. "Astrologiyaga kirish", "Astronomiya kaliti", "Jonni davolovchi quyosh kitobi", "Ikki xil harakatning zarurligi haqida", "Ko'paytirish asoslari", "Ptolemy "Almagest"ning sanskritchaga tarjimasi", "Foydali savollar va to'g'ri javoblar", "Farg'oniy "Elementlar"iga tuzatishlar", "Turklar tomonidan ehtiyotkorlik", "Oq kiyimlilar va karmatlar haqida ma'lumotlar", "She'rlar to'plami", "Al-Muqanna haqidagi ma'lumotlar tarjimasi", "Ibn Sino bilan yozishmalar" shular jumlasidandir.

O'zbekistonda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, buyuk ajdodlar xotirasini yodda saqlagan holda e'zozlab, yuksak hurmat va ehtirom ko'rsatish, ularni huquqiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy himoyalash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Binobarin, xalqimizning siyosiy tafakkuri, ijtimoiy faolligi va olib borilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg'usi tobora ortib borayotgan hamda bosib o'tilgan shonli yo'limizga nazar tashlar ekanimiz, Konstitutsiyaning yangi tahrirdagi 65-moddasida keltirilganidek, "Yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, buyuk ajdodlarimizning boy ma'naviy merosidan faxrlanish tuyg'usini shakllantirish to'g'risida"gi masalalarda davlat va jamiyat g'amxo'rlik qiladi.

Yangi O'zbekiston barpo etilayotgan bugungi kunda mamlakatimizga butun dunyoning nigohi qadalgan, qadimiy madaniyatimiz va ma'naviy qadriyatlarimizni jahon ahli tan olayotgan bir davrda ajdodlarimiz qoldirgan boy milliy qadriyatlarimizni avaylab-asrash va rivojlantirishga alohida ahamiyat bermoqda. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Mansur Moturidiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkir bobolarimiz hayoti, faoliyati, asarlarida o'z talqinini topgan adolat va adolatparvarlik g'oyalari bugungi maqsadlarimizga hamohang, deb ayta olamiz. Ular qoldirgan ulkan ma'naviy merosdan o'rnak va ibrat olib, bu g'oyani yoshlar ongiga tezroq yetkaza olamiz hamda ularning ilmga, tariximizga bo'lgan hurmat-ehtiromini yanada oshiramiz, ularda milliy g'urur shakllanishiga, ma'naviyatini yanada yuksaltirishga imkon yaratgan bo'lamiz.

Har bir millatning o'ziga xos jihatlari, xususan ma'naviyatini shakllantirishda, eng avvalo, beqiyos ta'sir kuchiga ega bo'lgan milliy qadriyatining o'zni katta. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda milliy qadriyatlarining qayta tiklanishi, buyuk zotlar ma'naviy merosining, xususan allomalarimiz ta'limotlarining o'zni va ahamiyati beqiyos.

Bularning bari Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi, avvalo, xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosining keng o'rganilishi, yoshlar qalbi va ongiga milliy g'oyaning chuqur singdirilayotgani bilan uzviy bog'liqdir. O'zbekistonning bugungi yoshlari sharoit va yangi imkoniyatlardan unumli foydalangan holda o'tmishda yashab o'tgan buyuk allomalar va ustozlardan ibrat olib ish yuritsa, jahon ilm-fani va madaniyati yutuqlarini to'liq egallaydi, mamlakat taraqqiyoti, yuksalishi uchun yetuk va malakali kadrlar bo'lib yetishadi.

**Yangi O'zbekistonda boshlangan islohotlar,** kelajak sari tashlanayotgan dadil qadamlar bardavom bo'lishini ta'minlashda dunyoda o'ziga yarasha yuksak salohiyati, benazir nufuziga mos ravishda o'rin egallayotgan mustaqil O'zbekiston atalmish davlat bor ekan, bu yurtida ana shu nomga munosib millat yashamoqda. Bu yurtida uning ota-bobolari, avlod-ajdodlari, buyuk zotlari yashab o'tgan. Ayni paytda bu borada to'plangan tajriba ana shu buyuk zotlarimizning bebaho merosi hamisha boshimizni baland, qaddimizni tik qiladi, o'zbek millatini kelajagi buyuk davlat qurish sari olg'a yetaklaydi.

Yangi O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirish maqsadida mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'yilgan hozirgi davrda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga bel bog'langan. Ana shu maqsadni ko'zlagan Prezident SH.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Milliy ma'naviyatimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan ulug' allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning turli mamlakatlardagi muzey va kutubxonalarda saqlanayotgan qo'lyozmalarini o'rganish, mavjud nusxalarini yurtimizga olib kelish, atroflicha tadqiq qilib, xalqimizga yetkazish borasida muhim ishlar amalga oshirilishi" yo'lida amaliy harakatlarga undab kelmoqda.

**Ana shu maqsadda Yangi O'zbekistonda buyuk allomalarimizning bebaho merosini chuqur o'rganish va uni keng jamoatchilikka yetkazish ustuvor masalalardan biriga aylangan.** Zero jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimiz hamda jadid bobolarimiz, xalqimizning ma'rifatparvar farzandlari Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy kabi buyuk bobolarimiz vasiyatlarini va ular qoldirgan ulkan ma'naviy merosdan o'rnak va ibrat olib, bu g'oyaviy ta'limotni yoshlar ongiga qanchalik darajada singdira olsak, ularning tariximizga bo'lgan hurmat-ehtiromini yanada oshirgan bo'lamiz.

Yoshlar masalasi e'tibor markazidan, kun tartibidan o'rin olganining sababi, avvalo, aholining yarמידan ko'prog'ini tashkil etadigan yoshlar miqdor jihatidan yirik qatlam, katta kuch hisoblanadi. Shuningdek, yoshlar kuch-quvvatga to'la, g'ayratli bo'lgani uchun ular boshqa guruhlariga nisbatan faol, yangiliklarga intiluvchan, innovatorligi va tashabbuskorligi bilan ajralib turadi. Shu bois Prezidentimiz "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanimiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim", deb ta'kidlagani ham bejiz emas.

**Dilorom BABAJANOVA,**  
tarix fanlari doktori, professor





# “ONAMIZNING ONASI BO‘LSA SHU VATAN”

## Birinchi suhbat

– “Sulton Jaloliddin” dramasi qaysi yo‘nalishda yozilgan?  
– She‘riy yo‘nalishda yozilgan.  
– Yodingizda qolgan joyidan ikki qator yod aytib bera olasizmi?

– ...

– Asarni o‘qiganmisiz, o‘zi?

– O‘qiganman. Shu tobda yodimga kelmayapti.

Qanday yodga kelmasligi mumkin?! Yoshlar orasida juda mashhur bo‘lgan misralar Maqsud Shayxzodaning shu nomli asaridan olingan-ku?!

Asarda Xorazmshoh Jaloliddinning dushmanga qarshi kurash olib borishiga fотиha bermay, undan yuz o‘g‘irganida onasidan so‘raydigan so‘rovi bor. Yuraklarni larzaga soladigan mana bu savol-javobni o‘qib ko‘ring:

Jaloliddin

So‘yla, ona, kim haqli, otam yoki men?

Qaroringa ishonay, so‘yla, toki sen!

Ona

(tumor beradi)

O‘g‘lim, javob – tumorni armug‘on qilish,

Otang bo‘lsam, berardim dudama qilich!

Tiz cho‘kmaysan, do‘zaxdan kelsa fотih ham,

Oq sutimni oqlagin – senga fотiham!

Jaloliddin

Xorazmshoh yo‘q desa, ha, der xotini,

Jaloliddin onasi – derlar otini.

Bu dunyoda onasiz tug‘ilgan kim bor?

Jon berganga jon bermoq mardlarga darkor!

Onamizning onasi bo‘lsa shu Vatan –

Ko‘rlik afzal shu yurtni asir ko‘rmoqdan.

Mazkur asarni bir marta bo‘lsa-da, o‘qigan odam bu satrlarni unutishi mumkin emas.

Yoki asar mazmun-mohiyatini o‘zida aks ettirgan Jaloliddin Manguberdining o‘lim oldi xalqqa xitobichi?! Har gal shu misralar yodimga tushganida buxorolik navqiron chegarachi o‘g‘lonning ko‘zlari yulduzdek porlab: “Ozodbek Nazarbekovning shu qo‘shig‘ini eshitsak, hammamiz bor ovozdada guvullashib jo‘r bo‘lamiz”, deganlari ko‘z o‘ngimda gavdalanadi.

Mangulikdan joy olgan yashar abadiy,

Men-ku, Manguberdiman, olam biladi.

Ko‘klardanmi, suvdanmi yo yer tagidan,

Balki sahro bag‘ridan, tog‘ etagidan

Bir kun paydo bo‘laman shu yurt, shu yerda,

Yurt shaydosi ko‘rinmas g‘urbatda – go‘rda.

Kim yurtdan yovni quvsa, mendurman o‘shal,

Ulug‘vor niyatlarga kor qilmas ajal.

Aziz o‘quvchi, xulosa qilishni o‘zingizga qoldiramiz. Biz shu aziz Vatanga muhabbatni targ‘ib qiluvchimiz, xolos.

## Ikkinchi suhbat

– Ikkingiz ham bir xil ball to‘pladingiz. Ammo bu o‘rin bir kishiga beriladi. Buni aniqlashning yana bir yo‘li bor: bahr-u bayt aytish...

– Yo‘q-yo‘q, bo‘lmaydi, men she‘r aytolmayman, bilmayman.

Bir narsa deyishga o‘jizman. Chunki bu “Eng yaxshi yosh kitobxon” ko‘rik-tanlovi ishtirokchilaridan birining e‘tirozi edi-da. To‘g‘ri, hamma ham she‘riyatni tushunavermaydi. Ammo shunday she‘rlar borki, ularni vaqt sarflab yodlamaysiz. Quyma satrlarning o‘zi ko‘ngilga kirib, xotiralarni zabt etishga qodir.

Shavkat Rahmonning “Turkiylar”idan quyidagi misralarini o‘qiganmisiz?

Bormi er yigitlar, bormi er qizlar,  
bormi gul bag‘ringda jo‘mard nolalar,  
bormi bul tuproqda o‘zligin izlab,  
osmon-u falakka yetgan bolalar.

Bor bo‘lsa,

alarga yetkarib qo‘ying,

bir boshga bir o‘lim demagan ermas,

shahidlar o‘lmaydi,

bir qarab to‘ying:

Yovga ters qaragan musulmon emas!

O‘qishning o‘zidayoq tanangizda qon jo‘sh urayotganini his qilasisz, qalbingiz mardona hislardan kattayib ketayotgandek bo‘ladi. Jonbaxsh satrlar!

Yoki Asqad Muxtorning mana bu misralariga e‘tibor bering, a:

Chig‘anoq ichida yotaversa, qumdan

Gavhar tug‘ilarmish nihoyat...

Quch meni mahkamroq, sening og‘ushingda

Men ham javohirga aylansam shoyad.

Qarang, qanchalar oddiy, qanchalar serma‘no. Agar tuyg‘ularning ranglari bo‘lganida eng yorqin, eng qaynog‘i shu satrlarda aks etardi.

She‘r aytolmaslik mumkindir, o‘qimaslik, tinglamaslik mumkin emas. Siz bir urinib ko‘ring. Hozir yoshlar sevgilisiga nimalar haqida yozishlarini bilmayman. Ammo katta avlod maktublarda izhori dil qilar edi. Hatto savodi haminqadar bo‘lganlar ham maktublarga va, eng avvalo, she‘riyatga murojaat qilar edi. Ko‘ngil izhorining eng mukammali she‘r bilan ifoda etilganidir!

Inobat IBROHIMOVA,  
“Vatanparvar”

Mushtlar, tepishlar, otishlar va og'riqli ushlab turish kabi texnik harakatlar baholanishi inobatga olinsa qo'ljangi sport turida jarohat olish ehtimoli juda yuqori. Bunday holatlarning bo'lishini bila turib, tatamiga tushish insondan metin iroda, kuchli qat'iyat, o'ziga bo'lgan ishonch va tavakkalchilik talab etadi.



Muallif suratga olgan

# METIN IRODA, KUCHLI QAT'IYAT VA ISHONCH

Jismida bu kabi xislatlarni jamlagan sportchilarda g'alabaga bo'lgan ishtiyiq o'ta yuqori bo'lishi bilan bir qatorda, kuchli ruhiy bosimga ham bardosh berish xususiyati mujassam bo'ladi. Chirchiq shahrida joylashgan harbiy qismlarning birida bo'lib o'tgan qo'ljangi bo'yicha Mudofaa vazirligi chempionatida xuddi shunday mard va jasur harbiy xizmatchilar o'zaro bellashdi. Unda barcha harbiy okruglar, Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari hamda Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi, shuningdek respublikamizdagi oliy harbiy ta'lim muassasalari vakillari ishtirok etib, g'oliblik uchun kurash olib bordi.

Saralash bosqichlarida yuqori natijalarni qayd etib, vazirlik miqyosida qatnashgan ishtirokchilar o'rtasidagi musobaqa keskin va murosasiz kechdi. Bahsli holatlarga hamkor tashkilotlar tomonidan jalb etilgan hakamlar hay'ati a'zolari ishtirokida videotasvirlar orqali aniqlik kiritilib, musobaqaning shaffof o'tishi ta'minlandi.

– Ishtirokchilar 250 dan ortiq bo'lib, 32 jamoaga bo'lingan holda musobaqaga kirishdi. Chempionatni 10 nafardan ortiq hakamlar hay'ati a'zosi boshqarib bordik, – deydi bosh hakam Erkin Po'latov. – Har bir ishtirokchining chiqishlari maxsus videoapparat orqali yozib borildi. Odatda, mag'lub tomonidan hakamlarning chiqargan qarorlariga norozilik bildiriladi. Bu musobaqada ham shunday noroziliklar bo'ldi. Barchasiga yozib olingan videotasvirlarni qayta ko'rish orqali xulosamizni berdik. Natijada shubha-gumonga o'rin qolmadi. Biz doimo kuchli sportchining g'alaba qozonishini xohlaymiz.

– Qo'ljangi sport turi bilan 2010-yildan buyon shug'ullanib kelaman. Yettita vazn toifasi (57, 62, 67, 73, 80, 88, 97) doirasida o'tkaziladigan musobaqaga bu yil yangilik sifatida sakkizinchi (+ 97 kg) vazn ham qo'shilibdi, – deydi ikki karra Osiyo va jahon chempioni, xalqaro toifadagi sport ustasi kichik serjant Azamat Abduhakimov. – Bu yilgi Mudofaa vazirligi chempionatida ham 97 kg vazn toifasida g'oliblikni qo'lga kiritdim va sportdagi faoliyatimni yuqori nuqtada tugatishga qaror qildim. Bu yog'iga o'zimni murabbiy sifatida sinab, yoshlarga qo'ljangi sport turining sir-asrorlarini

o'rgatmoqchiman. Bugungi musobaqa o'ta ko'tarinki ruhda bo'lib o'tdi. Unda Sharqiy harbiy okrug nomidan tatamiga chiqdim.

Yakuniy natijaga ko'ra, birinchi o'rin Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug jamoasi tomonidan zabt etildi.

Ikkinchi o'rinni Toshkent harbiy okrugi hamda Sharqiy harbiy okrug jamoalari egalladi. Uchinchi o'rin esa Shimoli-g'arbiy harbiy okrug jamoasiga nasib etdi.

**Sherzod SHARIPOV,**  
"Vatanparvar"



## Voqeyi hikoya

## Sharofiddin aka yarim tunda uyiga qaytdi. Bedor o'tirgan xotini Muyassar opa har doimgidek eriga peshvoz chiqdi.

– Keldingizmi, dadasi, juda kech goldingiz? Xavotir oldim, tinchlikmi ishqlilib?

– Haa, tinchlik, xotin, tinchlik. Senga necha marotaba meni kutma, damingni olaver, deganman, uxlasang bo'lmaydimi?

– Ko'zimga uyqu kelmasa, nima qilay? Yoshingiz yetmishga boryapti axir, avvalgidek baquvvat, sog'lom emassiz. Ozinga o'zingizni ham o'ylasangiz, yaxshi bo'lardi.

– Xavotir olma, sog'lig'im joyida, xalqqa kerak ekanman, ishlayapman, – kuyinib gapirayotgan ayolini tinchlantirdi Sharofiddin aka. – Nasihat o'qiguncha ovqatingni olib kel, qorinam piyozning po'sti bo'lib ketdi. Bugun ko'p suv yoqalashimga to'g'ri keldi, suv taqsimlash bilan ovora bo'lib, vaqt qanday o'tganini bilmay qolibman, charchadim...

Sharofiddin akaning miroblik qilayotganiga qirg yildan oshgan. Uni qishloqdoshlari-yu yon-atrof Sharofiddin mirob deb ataydi, hurmat qiladi. Ha, miroblik zahmatli vazifa. Ayniqsa, qo'shni davlat bo'lmish Qirg'iziston bilan chegara hududda suv ta'minotini yo'lga qo'yish, qirg'iz birodarlar bilan til topishish oson emas. Negaki, shu hududni ta'minlaydigan kanalidagi suv qo'shni davlatdan o'tib keladi. Uch-to'rt qishloqqa tegishli suv taqsimlash tizimi boshlig'i sifatida o'z kasbining fidoyisi bo'lgan bu inson doimo bedor va harakatda.

Mustaqillikdan so'ng chegaralar berkilgach, suv muammosi yanada avjga chiqdi. O'tgan yillar davomida u nimalarni boshdan kechirmadi deysiz. U kunlarni unutish qiyin. Ba'zi voqealar yuragiga muhrlanib qolgan. O'shanda o'ttiz besh yoshlardagi navqiron, tinib-tinchimas, qat'iyatli yigit edi.

– Hormang, mirob! – kanal yoqalab yurgan Sharofiddin akaga duch keldi ikki barzangi yigit. – Yarim kechasiyam dam olmas ekansiz-da a?

– Haa, bu ham bir sezon, bahor va yoz ichi astoydil mehnat qilishga to'g'ri keladi. Kuzdan boshlab qish ichi dam olaveramiz, – ular bilan salom-alik qilish asnosida vaziyatni tushuntirdi mirob.

– Sizga bir iltimos bilan keldik, – maqsadga o'tdi ikkinchi barzangi. – Oilangizga, birin-ketin tug'ilayotgan bolalaringizga anchagina sarf-xarajat qilsangiz kerak. Quruq maosh bilan kun kechirish qiyin...

– Topganim oilamga yetadi, – uning so'zini bo'ldi Sharofiddin mirob. – Nolimayman, ro'zg'orimda hamma narsa yetarli.

– Gapingizga qaraganda maqsadimizni bilib turibsiz. Bir-ikki so'm ortiqcha pul ziyon qilmaydi, aka. Kanaldagi suvni to'rt-besh soatga biz aytgan fermer yerlariga oqizib qo'ysangiz bo'lgani.

– Ming bor uzr, yigitlar, unday qila olmayman. Pullaring o'zlaringga siylov. O'sha fermer o'zining navbatida suv oladi...

Oradan ikki kun o'tib, Sharofiddin mirob yarim tunda kimlardir tomonidan qattiq kaltaklandi. Shifoxonada ko'zini ochgan mirobning ahvoli og'ir edi. Xalq oyoqqa qalqdi. Salomatligi tiklanayotgan mirob hech kimdan da'vom yo'q, degan bo'lsa-da, tegishli organlar tomonidan jinoiyatchilar qo'lga oliindi va jazosini oldi.

Bunday ko'ngilsiz voqealar uning hayotida, ozmi-ko'pmi, iz qoldirgan. Pora tutqazishlar, do'q-po'pisalar, tuhmatlar,

yumaloq xatlar, uning ishdan ketishiga qilingan harakatlar... Sharofiddin mirob o'zligini yo'qotmadi. Miroblikning zahmatli mehnatidan chekinmadi ham.

Hali-hanuz suv bahonasida ikki elat o'rtasida arzimagan muammoni ro'kach qilib, murosani buzadigan g'alamislar keragidan ortiq topiladi. Vodiyning qurg'oqchilik yuqori bo'lgan bu joylarida dehqonchilik, bog'-rog' qilish mashaqqat. Yoz oylarida suvning har tomchisi oltinga aylanadi. Ekinlar-u bog'lar ikki-uch kun suv ichmasa, seziladi, yerlar qaqraydi. Shunday damlarda Sharofiddin mirob kecha-yu kunduz tinmaydi, oldiga bir-ikki shogirdini olib, dehqonlarga navbati bilan suv yetkazib beradi. Odilligi, halolligi, muomalasi sabab qo'shni elatga ham el bo'lib ketgan u.

Sharofiddin aka oltmish yoshga to'lib nafaqaga chiqayotganida viloyat irrigatsiya tizimi boshqarmasi tomonidan tadbir amalga oshirildi, bo'lajak pensionerga hurmat-ehtiroim ko'rsatildi. Ammo ishdan ketishiga ruxsat etilmadi.

– Pensiya chiqdim, endi dam olaman deb o'ylamang, Sharofiddin aka. Hali xalqqa keraksiz, – tadbir oxirida so'z olgan boshqarma boshlig'i maqsadini bayon qildi. – Sizdan boshqa odamning bu vazifani uddalashi qiyin. To'g'ri, bir qator mehnatkash, bilimdon shogirdlar yetishtirdingiz. Biroq ular hozircha siz kabi katta tajribaga ega emas, o'rningizni bosa olmaydi. Qo'shni davlatdagi hamkasblarimiz ham siz bilan oson til topishadi, iltimosingizni ikki qilmaydi. Shunday ekan, xalqdan xizmatigizni ayamang.

– Nima ham derdim, – maqtovlardan o'ng'aysizlanib turgan mirob tortinib so'z boshladi, – shu el farzandimiz, xalqimiz, yuqoridagilar nima desa, shu-da, yurt uchun umrim fido bo'lsin...

Mana, shunga ham sakkiz yil bo'lyapti, Sharofiddin mirob hamon el xizmatida, bedor va behalovat. Bugun ham bir nechta "suv o'g'risi"ga tanbeh berishga to'g'ri keldi. Bunday noinsoflar o'zining suv navbatidan tashqari boshqalarning navbatiga ham ko'z olaytiradi. Ba'zi yeri ko'p fermerlar zamonaviy suv motori orqali ekin-u bog'larini qayta-qayta sug'oraveradi. Navbati kelgan sodda va

bo'shroq dehqonga suv yetib bormaydi, ekinlari suvsizlikdan o'nglana olmay, rivojlanmay turaveradi. Bahordan qilgan mashaqqatli mehnati yo'qqa chiqadi. Buni yaxshi bilgan Sharofiddin aka sodda mehnatkashlar kuyib qolmasligi uchun suv yoqalab tinmaydi, shogirdlarini ham ishga soladi. Axir dehqonning ham oilasi, bir etak bola-chaqasi bor, ilinji, topish-tutishi shu yeridan.

Ba'zida esa qo'shni davlat tomonidan belgilangan suv yetib kelmaydi. Bu yanada mushkul vaziyat. Hamma mirobdan najot kutadi. Gohida siyosat va qonun-qoidalar ish bermaydi, berganda ham fursat o'tadi. Mirobni esa fursat o'tkazishga haqqi yo'q. Telefon orqali qilingan iltimoslar, tushuntirishlar, yalinib-yolvorishlar... Axir muammoni chegara simi tortilgan qo'shni davlatga kirib, hal qilish oson emas.

Sharofiddin aka yetmish yoshga qadam qo'ydi. Tetik, bardam, g'ayratli mirob hamon yurt xizmatida. Har doimgidek bahor faslidan boshlab shogirdlari bilan suv yoqalashga tushib ketdi.

– Xotin, negadir kun bo'yi holim bo'lmadi, – kechga tomon ishdan qaytgan Sharofiddin aka Muyassar opani ahvolidan xabardor qildi.

– Ishtahangiz yo'q, yaxshi ovqatlanmayapsiz, holingiz bo'lmaydi-da, – eriga sinchkov tikildi ayol.

– Rangingiz uniqqan, do'xtirga ko'rinmasangiz bo'lmaydi.

– Qo'ysang-chi, arzimagan narsaga do'xtirga yuguraveramanmi, bu yog'i keksachilik boshlanyapti, shunga charchab qolyapman chog'i, dam olsam o'tib ketadi.

– Siz tengqurlar allaqachon oyog'ini uzatib, uyda o'tiribdi. Siz bo'lsa ishsiz turolmaysiz, pensiyaga chiqib ham, tinganingiz yo'q, yurganingiz yurgan. Dam oling endi, dadasi.

– Kalta o'ylaysan-da, xotin, ishlagan bo'lsam, davlatimiz, xalqimiz tomonidan hurmat, obro'-e'tibor topdim, mukofotlar oldim. Qancha ko'krak nishonlari berishdi, "Suv xo'jaligi a'lochisi" degan nomga ega bo'ldim. O'tgan yili "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan irrigator" unvoni bilan mukofotlandim. Bularning barchasiga mehnatim orqali erishdim.

– Bilaman, dadasi, bilaman, ammo sog'liqni ham o'ylash kerak-da. Ertagayoq bolalar do'xtirga olib boradi...

Ertasiga Sharofiddin aka qarshilik qilishiga qaramay, o'g'illari shifokorga olib bordi. Tekshiruvlar, tahlillar bedavo darddan darak berganida mirobning farzandlari karaxt holga tushdi. Biroq otasiga bildirmadilar. Sharofiddin akaning fikr-u xayoli esa hamon ishida, xalqqa suv yetkazib berishda edi. Barcha davo choralarini qo'llanildi, ammo uning salomatligi og'irlashib boraverdi. Bahor yozga ulandi, mirob to'shakka mixlanib qoldi.

– Kanalda suv to'lami? – uni ko'rgani kelgan shogirdlaridan so'radi Sharofiddin mirob. – Xalq qiynalmayaptimi?

– Yo'q-yo'q, hammasi yaxshi, dehqonlarga suv yetkazib beryapmiz, – kalovlandi yigitlar. Axir katta kanal ustozlarining darvozasi yonidan o'tadi. Uni aldash...

– Ertalab nevaralarimdan so'ragandim, kanalda deyarli suv yo'q, deb aytdi-ku, nima bo'lyapti o'zi? – shogirdlariga bir-bir qarab chiqdi mirob.

– Shu... qirg'iz birodarlarimiz... sal muammo qilib turibdi-da...

– Nega menga vaqtida aytmadilaring? – xunobi oshdi mirobning. – Chorasini ko'rgan bo'lardim-ku! Qani, meni qo'ltig'imga kirib, tashqariga olib chiqinglar-chi. Kanaldagi suvni o'z ko'zim bilan ko'rmoqchiman.

Shogirdlari dovdirab qoldi. Ammo ustozlarining so'zi qonun. Muyassar opaning hay-haylashiga qaramay, yigitlar uni ikki tomonidan suyab, hovli tashqarisiga, kanal bo'yiga olib chiqdi. Katta kanal ichida nomigagina jildirab oqayotgan suvni ko'rib, mirobning ko'ziga yosh to'ldi. Beixtiyor qo'llarini ochib, suv to'kinligi uchun duo qildi.

Boshi egik shogirdlari Sharofiddin akani ichkariga olib kirib yotqizdi. U hamon ko'rgan holatidan o'ziga kela olmasdi. Xotinidan telefonini olib berishni so'radi va qirg'iz birodarlariga bog'landi. Bu uning xalqi uchun qilgan so'nggi iltimosi, so'nggi so'zi edi...

Mirobdan ayrilgan yaqinlari ko'z-yosh to'kayotgan bir pallada kanalda to'lib suv oqa boshladi.

Zulfiya YUNUSOVA,  
"Vatanparvar"



Statistik ma'lumotlarga ko'ra, yer yuzida 80–90 foiz kishi herpes virusining tashuvchisi hisoblanadi. Labga uchuq toshishi ana shu virusning qo'zg'alishi tufayli yuz beradi. Bir yilda 1-2 marta herpes, ya'ni uchuq bezovta qilsa, bu vahimoli emas, ammo bu surunkali davom etsa va tananing boshqa a'zolariga tarqasa, buning oqibatlarini yomon bo'ladi.

# GERPES

## NIMASI BILAN XAVFLI?

Shifokorlarga herpesning 8 turi yaxshi ma'lum va ulardan uchasi ko'p tarqalgan. Birinchi turida virus og'iz, burun, ko'z shilliq qavati hamda teri qoplamini zararlaydi va maishiy aloqa yo'li bilan yuqadi. Ikkinchi – jinsiy aloqa yo'li bilan yuqadigan turida shamollash labda namoyon bo'ladi. Uchinchisi esa o'rab oluvchi temiratkilarni keltirib chiqaradi.

Xo'sh, siz bu virus haqida nimalarni bilasiz? Insonlar orasida bu teri infeksiyasi nega ko'p tarqalgan? Uning paydo bo'lish sabablari nimada? Anglaganingizdek, biz bu safar aksariyat hollarda immunitetning susayishi sabab kuzatiladigan, oqibati demensiya, pnevmoniya hatto falajlik bilan tugashi mumkin bo'lgan herpes virusi haqida ma'lumot beramiz.

### Keltirib chiqaruvchi omillar

Sovuq yaralarning asosiy sababi Herpes simplex virusidir. Herpes simplex virusi vujudga kirgandan so'ng doimiy ravishda nerv hujayralarida yashaydi. Uning kelib chiqishiga ko'plab omillar sabab bo'lishi mumkin. Chunki har bir insonning qo'zg'atuvchi omillari har xil bo'ladi. Shuning uchun ma'lum bir odamda bu sovuq yaralarning paydo bo'lish sabablarini va nima uchun takrorlanishini aniqlash qiyin bo'ladi.

Masalan, shifokorlar ba'zi bemorlarda bu virusni keltirib chiqaruvchi bosh omil stress ekanini ta'kidlaydi. Ya'ni stress tananing immunitet tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va herpesni qo'zg'atuvchi omil bo'ladi. Shunday qilib, stress gormonal o'zgarishlarga olib kelishi va immunitet tizimining normal ishlashini buzishi mumkin. Bu esa tanada sovuq yaralarning paydo bo'lishiga zamin yaratadi.

Ba'zi bemorlarda immunitet tizimining zaiflashishi herpesning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Zero immunitet organizmni infeksiyalardan himoya qiluvchi murakkab tizimdir. Zaif immunitet Herpes simplex virusining faollashishini va herpesning qaytalanishini osonlashtiradi.

Yana ba'zilar herpesni quyosh nurlari qo'zg'atishi mumkin. Chunki quyosh nurining kuchli ta'siri lablar yoki og'iz atrofidagi terini bezovta qilishi, infeksiyani qo'zg'atib, uning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun herpes virusidan aziyat chekuvchi insonlar doimiy ravishda terisiga quyoshdan himoyalovchi krem surishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Unutmang, herpesning qaytalanishida ovqatlanish tartibi ham rol o'ynaydi. Ba'zi oziq-ovqatlar, ayniqsa arginin (*shokolad, findiq, yeryong'oq va boshqalar*)ni o'z ichiga olgan ovqatlar sovuq yaralarni qo'zg'atishi mumkin. L-lizin (*qatiq, pishloq, baliq va boshqalar*) kabi aminokislotalarni o'z ichiga olgan ovqatlar esa sovuq yaralarning chastotasi va kuchini kamaytirishga yordam beradi.

Shunday ekan, stressdan qochish, sog'lom turmush tarzini saqlash, quyoshdan himoya qilish va muvozanatli ovqatlanish kabi ehtiyoj choralarini ko'rish orqali sovuq jarohatlarning takrorlanishini kamaytirish va infeksiyaning ta'sirini yengillashtirish mumkin.

### Qanday simptomlari bor?

Herpesning og'iz, ko'z va burun shilliq qavatida kichik pufaksimon toshma toshishidan tashqari boshqa simptomlari ham mavjud. Misol uchun, ayollarda bu virus qo'zg'aganda qornidan pastki sohasi va belida sanchiqlar kuzatilishi, shuningdek herpes yara va

toshmalari siydik yo'lida bo'lishi hamda bu og'riqni his qilishga sabab bo'lishi mumkin. Darvoqe, qichima ham herpesga xos simptomlardan biri hisoblanadi. Ushbu belgilar kuchli yoki nomiga kuzatilganda ham shifokorga borishni kechga qoldirish kerak emas.

### Uni davolab bo'ladimi?

Herpesni butkul davolab bo'lmaydi. Chunki simptomlar o'tib ketgani bilan virus neyronlar DNKsida saqlanib qoladi. Mutaxassislar o'tkazgan tadqiqotlarda virusning teri hujayralaridan markaziy asab tizimiga o'tib, DNKga o'rashib olishi aniqlangan. Immuniteti past insonlarda viruslar yanada faol bo'lishi va markaziy asab tizimi hamda boshqa ichki a'zolariga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Agar virus bosh miyani ham zararlantiradigan bo'lsa, oqibati falajlik yoki o'lim bilan tugashi mumkin. Herpes bilan tug'ilgan (*onadan bolaga o'tgan*) bolaning vafot etishi ehtimoli yuqori bo'ladi yoki chaqaloqning rivojlanishida jiddiy muammolar kuzatiladi. Qolaversa, genital herpes (*jinsiy yo'l bilan yuqadigan herpes*) ayollarda bachadon bo'yni, erkaklarda esa prostata bezi saratoni rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

### U yuqumlimi?

Albatta, yuqumli. Agar labdagi herpes toshmasiga qo'l bilan teginib, so'ng boshqalar bilan ko'rishsangiz (*o'sha odamning qo'l terisida biror ochiq jarohat bo'lsa*), ushbu infeksiyani o'sha odamga yuqtirishingiz mumkin. Yana bu virus shaxsiy gigiyena vositalaridan umumiy foydalanganda va kamdan kam holatda havo-tomchi yo'li bilan yuqishi mumkin.

### Mumkin emas!

Labdagi uchuq pufakchalarini igna bilan

yormang va unga spirt surtmang. Yana yara achishganda toshma ustini tishlamang yoki uni qo'lda ko'chirmang. Chunki pufakcha ichidagi suyuqlik lab atrofi yoki yuz, ko'z va tananing boshqa a'zolariga ham tarqab, infeksiya ko'payishi mumkin.

### Xalqona davo choralari

- Labda yallig'lanish alomatlarini sezsangiz, bezovtalikni yengillashtirish uchun moychechak, timoqgul (*kalendula*) ekstraktini jamlagan surtmalar, shuningdek oqqarag'ay (*pixta*) moyini surish yaxshi samara beradi.
- Bir choy qoshiq qora choyni yarim stakan qaynoq suvga damlang. Soviguncha dam yesin. So'ng choyga paxtani yumaloqlab namlang va uchuqlarga qo'ying. Muolajani 3-4 kun davomida kuniga bir necha marta takrorlang.
- Kasallik boshlangan zahoti shikastlangan joyga pista moyini surting. Virus zararlagan joy kuygandek bir oz achishishi mumkin. Lekin yaxshi samara beradi. Bu muolajani kechasi bajaring.
- Kuniga bir necha mahal quloq kirini uchuqqa surting.
- Yana paxtani kamfora moyiga namlab, kuniga bir necha mahal uchuqqa surtish ham foydali.
- Choyda ko'p bo'lgan flavonoid va kofein herpes virusining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Bunda bergamotli choy ayniqsa samaralidir. Buning uchun yaraga choy kompressini qo'llang va 10 daqiqaga qoldiring. Muolajani kuniga 3-4 marta takrorlang.
- Suv va olma sirkasi qo'shilgan aralashmaga botirilgan paxtali cho'pni zararlangan sohaga surting. Chunki olma sirkasi ayrim bakteriya va viruslarga qarshi kurashishda yordam beradi.


Agarda sizda uchuq surunkali ravishda chiqayotgan bo'lsa, bu holatda albatta shifokor huzuriga borishingizni maslahat beramiz. Chunki o'zi kichkina yara ko'rinishida namoyon bo'layotgan bu infeksiyaning oqibati ayanchli bo'lishi mumkinligini unutmang!

### Har narsaning iloji bor

Aslida yara tezroq bitishi uchun unga teginmaslik kerak. Immuniteti yaxshi bo'lgan kishilarda labdagi uchuq odatda ikki hafta ichida o'tib ketadi. Lekin ko'pchilik ayollar labga chiqqan uchuqni kosmetik nuqson deb biladi va bundan xijolat bo'ladi. Xo'sh, agar ayol kishining labiga uchuq chiqqan bo'lsa-yu, u muhim tadbirga borishi lozim bo'lib qolsa, unda nima qilmoq kerak? Bunday holatda siz silikon asosli praymerdan foydalanishingiz mumkin. Praymer surtgandan keyin bir oz vaqt o'tib, konsiler ishlatting. Keyin oddiy pomadadan foydalanishingiz mumkin. Qarabsizki, yara ko'zga tashlanmaydi.

Unutmang, bakteriya tushishining oldini olish uchun yaraga tegmaslik, achishmasligi uchun esa achchiq va nordon taomlardan vaqtincha tiyilishingiz kerak bo'ladi.

**G. XODJAMURATOVA**  
tayyorladi.



## Kubok

# Buxoro musobaqaga mezbon

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan Buxoro shahrida sportning raketamodel turi bo'yicha Ipak yo'li kubogi xalqaro musobaqasi va O'zbekiston ochiq kubogi bo'lib o'tdi.



Musobaqalarda Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston milliy terma jamoalarining a'zolari o'zlari tomonidan yasalgan raketa modellari va ularning ochiq osmonda parvoz qilish imkoniyatlarini namoyon etdi.

Do'stona va shiddatli ruhda o'tgan Ipak yo'li kubogi xalqaro musobaqasida quyidagi davlatlarning terma jamoalari yuqori o'rinlarni qo'lga kiritdi:

1-o'rin: Rossiya Federatsiyasining Moskva viloyati jamoasi;

2-o'rin: Rossiya Federatsiyasining Sergiyev Posad shahri jamoasi;

3-o'rin: O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Buxoro viloyati kengashi jamoasi.

O'zbekiston ochiq kubogi esa quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

1-o'rin: Samarqand viloyati;



2-o'rin: Buxoro viloyati;  
3-o'rin: Namangan viloyati jamoalari.  
G'olib va sovrindorlar "Vatanparvar" tashkilotining diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

# Xalqaro ko'rgazma



O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Respublika texnik va amaliy sport turlari markazida barcha zotdagi itlarning "O'zbekiston kubogi – 2024" xalqaro sertifikat ko'rgazmasi o'tkazildi.

Xalqaro kinologiya ittifoqi va respublikamizdagi "Professional Canis" xizmatchi itlar klubi bilan hamkorlikda tashkil etilgan ushbu ko'rgazmada turli davlatlardan tashrif buyurgan kinologlar o'zlarining 190 dan ziyod barcha zotdagi iti bilan ishtirok etdi. Shuningdek, mamlakatimiz fuqarolariga tegishli hamda kuch tuzilmalarining kinologiya markazlari harbiy xizmatchilariga birlashtirilgan 100 dan ortiq xizmatchi itning ishtiroki tadbir yanada qizg'in va ko'tarinki ruhda o'tishiga hissa qo'shdi.

Ahamiyatlisi, ko'rgazma shartlarining bajarilishini Xalqaro kinologiya ittifoqi prezidenti Vladimir Urajevskiy va mazkur ittifoq eksperti Olga Rosinskaya qat'iy nazorat qilib bordi.

Yakunda toza naslli hamda intellekt jihatdan talabga javob bergan bir qator itlarning egalari va kinologlariga maxsus sertifikatlar topshirildi. Shuningdek, itlar uchun belgilangan namunadagi diplomlar taqdim etildi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

## Huquqiy profilaktika

# Ochiq muloqot

Surxondaryo viloyati qo'riqlash boshqarmasida shaxsiy tarkib ishtirokida ochiq muloqot o'tkazildi.

Unda "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonunchilik mazmun-mohiyati" mavzusida suhbatlashildi. Shu kabi tadbir harbiy qismlarning birida tashkil etildi. Unda jinoyat, uning tushunchasi, tasnifi, salbiy oqibatlar, javobgarlik va jazo muqarrarligi masalalarida huquqiy tushunchalar berildi.

Harbiy tuzilmalardan biridagi "Korrupsiya – jamiyat kushandasi" mavzusiga bag'ishlangan muloqotda "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun mazmun-mohiyati yuzasidan so'z yuritildi.

Ta'kidlanganidek, korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab, moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga zid holatda taqdim etish hisoblanadi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilgani uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish, manfaatlar to'qnashuvi esa shaxsning shaxsiy (*bevosita yoki bilvosita*) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (*mavjud manfaatlar to'qnashuvi*) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (*ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi*) vaziyatdir. Tadbir savol-javoblarga boy bo'ldi.

**Adliya podpolkovnigi**  
**A'zam ALMARDONOV,**  
**Termiz harbiy prokurorining**  
**o'rinbosari**

## Ijtimoiy himoya

# Taassurotlarga boy daqiqalar

Jizzax viloyatining Forish tumanida DXX Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchilari uchun barpo etilgan zamonaviy turarjoy majmuasidan yangi xonadonlar o'z egalariga topshirildi.

Tantanali tadbirida viloyat sektor rahbarlari, Jizzax harbiy prokuraturasi va boshqa mutasaddi tashkilotlar vakillari ishtirok etdi.

Zamonaviy va barcha qulayliklarga ega bo'lgan xonadonlar kalitlarini harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolariga taqdim etish jarayoni chinakam bayramga aylanib ketdi.

Harbiylarning farzandlari uchun barpo etilgan maktabgacha ta'lim tashkilotining foydalanishga topshirilishi ham barchaga cheksiz quvonch baxsh etdi.

Tadbirlar birlashtirilgan yoshlar bilan davom etdi. Jumladan, Sharof Rashidov tumani Olmachi mahallasi yoshlari ishtirokida kuch tuzilmalari hamkorligida vatanparvarlik tadbiri tashkil etildi. Unda harbiy prokuror kubogi uchun sportning futbol, kurash, shashka, kamondan otish va yugurish turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazildi. G'oliblar harbiy prokuror tomonidan kubok, qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

**Adliya kapitani**  
**Lochin QURBONBOYEV,**  
**Jizzax harbiy prokurorining**  
**o'rinbosari**

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Xorazm viloyati kengashi tasarrufidagi Hozorasp avtomobil maktabi jamoasi tomonidan yoshlarni ma'naviy-axloqiy va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.



# TIZIMLI ISHLAR

# SAMARASI

Jumladan, o'smirlarni chaqiruvga qadar tayyorlashda ta'lim muassasalari, tuman mudofaa ishlari, maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari, Yoshlar ishlari agentligi va boshqa davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda tadbirlar rejasini ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilinmoqda.

– Bugungi kunda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish hamda ommalashtirish kabi ishlar ham tashkilotimizning muhim vazifalari sirasiga kiradi, – deydi avtomobil maktabi boshlig'i Po'lat Norbayev. – Birgina joriy yilning o'tgan oylari mobaynida yigirmadan ziyod turli sport musobaqasi o'tkazilib, ularda tuman yoshlaridan ming nafarga yaqini muvaffaqiyatli qatnashdi. O'z navbatida, sportchi yoshlar respublika musobaqalarida viloyatimiz sharafini munosib ravishda himoya qilib, yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda. Shu kunlarda avtomobil maktabida voyaga yetmagan yoshlar faoliyatiga ham alohida e'tibor qaratilib, ular muntazam ravishda sport seksiyalariga jalb etilmoqda. Ayni paytda avtomototabda faoliyat ko'rsatayotgan "Havo miltig'idan o'q otish", "Yozgi biatlon", "Duatlon" hamda "Karting" kabi seksiyalarda ellik nafarga yaqin iqtidorli yosh muntazam shug'ullanmoqda.

Ma'lumki, ayni paytda avtomototransport vositalari haydovchilarini, shuningdek ommaviy kasbdagi xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ham avtomototab faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biridir. Buning uchun yaqinda zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan qayta jihozlangan

ushbu o'quv muassasasi ham avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatish huquqiga ega bo'ldi.

Shu kunlarda avtomototabda "A", "B", "BC", "BE", "CE", "D" toifali haydovchilikka nomzodlar o'qitilmoqda. Shuningdek, traktorchi-mashinist, kombaynchi kasblarini egallamoqchi bo'lgan yoshlar uchun ham maxsus o'quv kurslari tashkil etilgan. Bundan tashqari, yoshlarni mehnat bozorida ehtiyoj yuqori bo'lgan kasblarga o'qitishni ta'minlash yuzasidan ham bir qancha

ishlar amalga oshirilmoqda. Buning uchun sinfxonalar talab darajasida jihozlandi. Amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun zamonaviy rusumdagi o'quv-mashq avtomobillari tinglovchilar ixtiyorida.

Maxsus bilim va tajribaga ega bo'lgan o'qituvchi hamda amaliy boshqarishni o'rgatuvchi-ustalar tomonidan berilayotgan bilim va ko'nikmalarni puxta o'zlashtirgan tinglovchilar belgilangan imtihonlardan muvaffaqiyat bilan o'tmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, mazkur avtomobil maktabida ham ma'naviyat

va harbiy-vatanparvarlik targ'iboti doirasida turli tadbirlar o'tkazib borilishi ham an'anaga aylangan. Chunki yoshlarning ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishiga ko'maklashish tashkilotning muhim vazifalaridan biridir.

Yaqinda mana shunday ezgu ishlarining uzviy davomi sifatida ma'naviy-ma'rifiy va sport tadbiri o'tkazildi. Bundan ko'zlangan asosiy

maqsad yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tabiiylash, ularni sportning texnik va amaliy turlariga jalb etishdir.

Ayniqsa, "Vatanparvar" tashkiloti tashkil etilganining 33 yilligi arafasida o'tkazilayotgan bunday tadbirlar samaradorligini oshirishga yana ham keng e'tibor qaratilmoqda.

**Akbar ALLAMURODOV**



# Dazmoldan foydalanish qoidalarari

Bir qarashda dazmoldan foydalanish juda osondek tuyuladi. Ammo amalda kichkinagina "manyovr" ham qimmat uskunaning buzilishiga yoki sevimli kiyimingiz yaroqsiz ahvolga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, dazmollar ishlash prinsipi va funksionalligi bilan bir-biridan farq qiladi. Foydalanish bo'yicha ko'rsatmalarga amal qilsangiz, garderingiz havas qilarli, dazmolingiz esa yillar davomida foydalanishdan keyin ham mukammal holatda bo'ladi.

## Kiyimlarni jarayonga tayyorlash:

- vaqtinigizni juda tejjashni istasangiz ham, kiyimlaringizni saralab chiqing. Kiyimdagi yoriqlarni esingizdan chiqarmang, bir-bir nazar solsangiz, kifoya, bu ko'p vaqtinigizni olmaydi. Undagi ma'lumotlar sizga to'g'ri dazmollash rejimini tanlash imkonini beradi;

- dazmol turiga e'tibor qiling. Bug'li dazmolni to'g'ri ishlatishni foydalanish ko'rsatmasidan bilib olishingiz mumkin. Uskunadan foydalanishda bug' berish rejimini darhol yoqmaganingiz ma'qul, haroratni asta-sekinlik bilan oshirib boring;

- haroratni tanlashda e'tiborli bo'ling. Bu asosan dazmol turiga bog'liq. Mato qanchalik yupqa bo'lsa, harorat rejimi shuncha past bo'ladi;

- dazmollash jarayonida kiyim qatlanib qolmaganiga amin bo'ling, noto'g'ri tushib qolgan chiziqni tekislash vaqtinigizni oladi.

**Eslatma:** faqat yuvilgan va toza kiyimlarnigina dazmol qiling. Agar kiyilgan kiyimni dazmol qilmoqchi bo'lsangiz, unga o'rnatilgan chang zarralari mato tolalariga singib ketadi. U singigach, matodan ketkazish oson bo'lmaydi.

## Dazmolni ishga tushirish

Aslida bundan osoni yo'q-ku, deyishingiz mumkin. Agar ehtiyotkor bo'lmasangiz, kichkina xato ham qimmatga tushishi mumkin. Uskuna qizishi davomida gorizontal holatda qo'ymaganingiz ma'qul, aks holda, dazmollash stoling g'ilofi kuyishi mumkin. Agar dazmolning elektr uzatkichida buralish natijasida kichkina bo'lsa-da ochiq joylar bo'lsa, uni aslo ishlata ko'rmang.

## Bug' rejimida dazmollash

Agar kiyimlarni par bilan dazmollashni rejalashtirgan bo'lsangiz, avvalo, idishni suv bilan to'ldiring. Bunda maxsus stakandan foydalanganingiz ma'qul. Katta idishdan

suv solganda havo pufakchalari par chiqaruvchi teshiklarni berkitib qo'yishi mumkin. Suvni to'g'ridan to'g'ri jo'mrakdan olish mumkin emas. Vodoprovod suvi qattiqligi sababli qurum hosil bo'ladi va bu kiyimlarda dog' qolishiga sabab bo'lishi yoki uskunaning mumkin bo'lmagan joyiga suv kirib, nosozlik keltirib chiqarishi mumkin.

## Eng ko'p beriladigan savollardan

**Qanday suvdan foydalanish kerak?**

Dazmolga distillangan yoki tozalangan suv quyish muhim.

**Dazmolda suv qoldirish mumkinmi?**

Yo'q, bunday holatda noxush hid paydo bo'lishi mumkin. Agar suv tarkibida minerallar bo'lsa, qurum hosil bo'ladi.

## Dazmolni o'chirish

Buning qiyin joyi bormi, dersiz, lekin ertalabki tig'iz vaqtda esdan chiqib qolishi hech gap emas. Ayniqsa, tirbandliklarda qolib, ishxonaga yetib kelganingizda bu haqda eslash...

Bunda sizga bir nechta "layfhak" taklif qilamiz:



- rozetkani rasmga olib, chiqish eshigiga osib qo'ying. Shunda ketishdan avval elektr ta'minotini albatta ko'zdan kechirasiz;

- qandaydir odatni shakllantiring va buni faqat dazmol qilib bo'lganda qo'llang;

- har gal ishlatib bo'lgach, dazmol stolini yig'ishtirib qo'yishga odatlaning.

## Har xil mato turlari uchun harorat rejimi

Matoning yupqa yoki qalinligi va tarkibiga qarab, harorat darajasi belgilanadi. Bunga rioya qilmaslik kiyimning tashqi ko'rinishiga, sifatiga va undan foydalanish muddatiga ta'sir qiladi.

Agar kiyim yorlig'idagi yozuvlar o'chib ketgan bo'lsa-chi, demoqchimiz, unda dazmollashni minimal harorattan boshlab sekin-astalik bilan ko'taring. Silliqlik matolarni ichki tomonidan dazmollagan ma'qul. Dazmolni kichik elementlardan (*tugmalar atrofi, yoqa, yeng, manjet*) kattasiga qarab yo'naltiring.

## Xavfsizlik choralari:

- yonuvchan moddalarni qizdirilgan dazmoldan uzoq tuting;

- dazmolning suv idishini ortiqcha to'ldirmang;

- dazmollashni maxsus stol yoki qattiq matoli yuzada amalga oshiring;

- avto'o'chirgich funksiyasi bo'lgan taqdirda ham, elektr ta'minotidan uzib qo'ying;

- qayeridadir nosozlik bo'lsa, bunday dazmolni ishlatmang;

- elektr ta'minotiga ulangan dazmolni qarovsiz qoldirmang.

Mato	Xususiyatlari
<b>Poliester</b>	Mato yuqori haroratga chidamli emas, shu sababli minimal rejimda dazmol qilinadi
<b>Paxta va lyon</b>	Bu turdagi mato uchun harorat 200 darajagacha bo'lishi xavfli emas
<b>Tvit</b>	210 darajadan yuqori haroratda dazmollash mumkin
<b>Jun</b>	Taxminan 120 daraja yoki undan ham pastroq
<b>Ipak va neylon</b>	Eng past rejim, taxminan 70 darajada
<b>Trikotaj</b>	110-120 daraja o'rtacha haroratda, matoning qalinligiga bog'liq

## Pazanda

## Shifobaxsh ne'mat



O'zining betakror mazasi, ajoyib hidi va ko'rinishi bilan ajralib turuvchi bu mevaning foydali tomonlari bisyor. Nafaqat mevasi, balki shoxlari va bargi ham foydalidir. Tarkibida juda ko'p pektin birikmalari, fruktoza, glyukoza, kaliy tuzlari, temir, kalsiy, fosfor va mis bor. Parhezdagilar uchun eng yaxshi mahsulotlardan biri hisoblanadi, chunki unda yog' miqdori kam va xolesterin mavjud emas. Tarkibidagi pektin va tanin birikmasi tanadagi kanserogen moddalarni chiqarishga yordam beradi. Asab tizimiga ijobiy ta'sir qiladi, tetiklik baxsh etadi va kayfiyatni ko'taradi.

## Behili desert

### Kerakli masalliqlar:

2 dona behi, 1 dona limon, 5-6 qoshiq shakar, sariyog', pista va koritsa.

### Tayyorlanishi:

behini o'rtasidan bo'lib, tozalab, bo'laklarga bo'lib olamiz. Limon suvi, shakar va pista solamiz. Masalliqsarga sariyog' va koritsa aralashtirib, bir oz suv qo'shamiz. Ustini folga bilan yopib, 200° da 30 daqiqa davomida gaz pechida pishiramiz. Vitaminga boy taom tayyor bo'lgach, dasturxonaga tortamiz. Yoqimli ishtaha!



# Mashhurlar hayotidan

Yengiltakroq bir shoir Abdurahmon Jomiy huzurida maqtanib qoldi:

– Kecha tushimda Xizr payg‘ambar janoblari og‘zinga muborak tupugidan tufldi.

Jomiy unga shunday javob qildi:  
– Hizr payg‘ambar aslida sening yuzingga tufldi. Og‘zingni ochib turganing uchun tupugi og‘zingga ham tushgan bo‘lsa kerak.

\*\*\*

Faylasuf Suqrot bir boy bilan hamroh bo‘lib safarga chiqibdi. Nogoh ular qaroqchilarga yo‘liqib qolibdi.

– Ey voh, mabodo ular meni tanib qolsa, sho‘rim quriydi-ku! – debdi boy qo‘rqib-qaltirab.

– Ey voh, ular meni tanimasa, nima qilaman? – dermish Suqrot.

\*\*\*

Fransuz qiroli Lyudovik XIV she‘r mashq qilib turar va ularga baho berishni faqat Bualoga ishonarkan. Qirolning navbatdagi bemaza she‘rlarini o‘qigan Bualo qaltis fikrini shunday ifodalagan ekan: “Hazrat oliylari! Sizing qo‘lingizdan kelmaydigan ish yo‘q! Mana, bemaza she‘r qanday bo‘lishini bir ko‘rsatib qo‘ymoqchi bo‘lgan ekansiz, bu ishni qoyilmaqom qilib uddalabsiz!”

\*\*\*

Bir ziyofatda jahonga mashhur aktrisa Sofi Loren bank xo‘jayinining xotini bilan tanishib qoladi.  
– Nihoyatda go‘zal, kelishgan ayol ekansiz. Bemalol kinoda rol o‘ynasangiz ham bo‘lar ekan.

– Men Sofi Lorenman-da...  
– Nima bo‘pti! Ismi sharifingizni o‘zgartirasiz-qo‘yasiz!

\*\*\*

Charlz Darvin bir kuni restoranda ovqatlanayotgan edi, yonidagi stolda o‘tirgan xonim jahonga mashhur olimni tanib qolib, unga gap qotadi:




– Janob Darvin, siz doimo odam maymundan tarqalgan, deysiz. Ayting-chi, bu fikringiz menga ham tegishlimi?

– Albatta, sizga ham tegishli, – deya javob qiladi olim, – faqat siz oddiy maymundan emas, balki chiroyli maymundan tarqagansiz.

\*\*\*

Charli Chaplin mehmonxonadan chiqayotib eshik og‘asiga yigirma frank choychaqa beradi. U esa norozi bo‘lib ming‘irlyadi:

– O‘tgan gal sizning salomatligingiz uchun ichib qo‘yishimni so‘rab qirq frank beruvdingiz.



– Bu gal o‘zimni ancha yaxshi his qilyapman, – deya javob qiladi artist.

\*\*\*

Mashhur dramaturg Bernard Shou Nitshe falsafasi ta‘sirida “Mafusailga qaytish” degan pyesa yozadi. Asar ko‘rigidan so‘ng u tomoshabinlarga egilib ta‘zim qiladi. Shu mahal kutilmaganda gulduros qarsaklar barobarida yuqoridagi o‘rindiqda o‘tirgan bir tomoshabin jahl bilan hushtak chalvoradi.

Shou yuqoriga qaraydi, qo‘lini cho‘zib baland ovoz bilan xitob qiladi:

– Men ham shunaqa fikrdaman, do‘stim. Ammo ikkimiz mana bu qarsakbozlarga qarshi nima ham qila olardik!

\*\*\*

Kunlardan bir kun Tristan Bernar havaskor bir dramaturgning pyesasi ko‘rigida qatnashayotgan edi. Ikkinchi ko‘rinish paytida mashhur dramaturg o‘tirgan joyga muallif kelib so‘raydi:

– Maestro, sizga pyesam yoqyaptimi?

– Menga go‘yo tashqarida chelaklab yomg‘ir yog‘ayotganga o‘xshayapti.

– Tushunmadim, nega endi?  
– Axir shu paytgacha zaldan hech kim chiqmadi-ku!

\*\*\*

Mashhur italyan qo‘shiqchisi Karuzo safarga chiqqanida mashinasi buzilib qolib, bir fermerning qo‘rg‘oniga tushadi.

Qo‘shiqchi o‘z ismini aytganida fermer o‘rnidan sakrab turadi va Karuzoning qo‘lini hayajon bilan qisib, shunday xitob qiladi:

– Men qachonlardir bir kuni o‘z uyimda mashhur sayohatchi Robinzon Karuzoni ko‘rarmen deb o‘ylamagan edim!

\*\*\*

Bir kuni Toskaninidan nega uning orkestri tarkibida bironta ham ayol kishi yo‘qligi haqida so‘rab qoldilar.

– Bilasizmi, – deya javob qiladi maestro, – xotinlar juda ham xalaqit beradi. Agar ular chiroyli bo‘lsa – mening musiqachilarimga, xunuk bo‘lsa – menga xalaqit beradi!

Shodmon OTABEK tarjimasini.

@Vatanparvargazetasi\_bot  
“Vatanparvar” birlashgan tahririyati bilan bog‘lanish uchun telegram bot



SHU SONNING  
ELEKTRON SHAKLI

VATANPARVAR

MUASSIS



O‘ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
MUDOFAA  
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev  
polkovnik Otabek Yuldashev  
polkovnik Alisher Boboxonov  
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriq qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 55 511-25-91  
buxgalteriya: 55 511-25-76  
yuridik bo‘lim: 55 511-25-90

Navbatchi: podpolkovnik Gulnora Xodjamuratova

Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo‘ziyeva  
Musahih: Zebo Sariyeva

Buyurtma: V-5837  
Hajmi: 6 bosma taboq  
Bichimi: A3  
Adadi: 33 941 nusxa  
Bosishga topshirish vaqti: 14:00  
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “O‘zbekiston” NMU mas‘ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.  
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqqan boshlagan.

Nashr ko‘rsatkichi: 114.  
Bahosi: kelishilgan narxda.

“O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Sag‘bon ko‘chasi, 382-uy.



t.me/mv\_vatanparvar\_uz  
t.me/mudofaavazirligi



www.mv-vatanparvar.uz  
www.mudofaa.uz



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya